

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK73/76;377...

.....

MURANOV SAMANDAR BAXRIDINOVICH

**KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINI AMALIY
SAN'AT VOSITASIDA ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH**

5A140901- Kasbiy ta'lim (Amaliy san'at) mutaxassisligi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar: san'atshunoslik f.n.dots. H.Jo'rayev _____

“Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasini mudiri dots. M.Umarov _____

M.O'

SAMARQAND-2012

Alisher Navoiy nomli SamDU 5A140901 –Kasbiy ta’lim (Amaliy san’at) magistratura mutaxassisligi bitiruvchisi Muranov Samandar Baxridinovichning “Kasb-hunar kollejlari o’quvchilarini amaliy san’at vositasida estetik tarbiyasini shakllantirish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, hayotning siyosat va iqtisodning xalq xo’jaligi va ishlab chiqarishning, ma’naviyat va ma’rifatning, san’at, madaniyat va sanoatning barcha sohalarida turli xil chuqur islohotlarning amalga oshirilishi kishilarning ruhiyatiga, tafakurida, ongli hayotida ma’naviyatida, dunyoqarashida oshirilgan o’zgarishlar uzluksiz ta’lim tizimida ham o’z o’rnini topdi. Mamlakatimizda qat’iy ravishdagi uzluksiz ta’lim tizimi qaror topdi, yuqori malakali, oliy ma’lumotli va o’rta maxsus ma’lumotli kichik mutaxassislar tayorlaydigan 12 yillik majburiy ta’lim, 4 yillik bakalaviyatura va 2 yillik magistratura bosqichlari shaqillandi va barcha sohalar uchun bu tizimda kadrlar yetkazib berilmoqda hamda yuksak ma’naviyatli, barkamol, ruhan tetik, aqlan teran yangi sharoitlarga tez moslasha oladigan insonlarni tarbiyalab yetishtirmoqda.

Shu boisdan S.Muranov tomonidan bajarilgan tadqiqot ishida kasb-hunar kollej o’quvchilari amaliy san’at vositasida estetik tarbiyasini shakllantirish qaratilganligi diqqatga sazovordir.

Ma’lumki kasb-hunar kollejlarda amaliy san’at darslari asosiy o’rin egallaydi. Ushbu olib borilgan tajribalar zaminida o’quvchi-talabalarni amaliy san’at mashg’ulotlarini o’qitish bilan ularda estetik tarbiyani shakllantirish jarayonlarini o’rganish va aniqlash oid dars ishlanmalarimizni amalda sinab ko’rish va takomillashtirish haqida to’xtalib o’tilgan.

Tadqiqot ishi kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, muammoning o'rganilganlik darajasi, himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar, ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Ishning birinchi bobida mamlakatimizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi taraqqiyoti, kasb-hunar kollejlarda kichik mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish pedagogik asoslari, kasb-hunar kollejlarda estetik tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari (estetika fanining didaktik imkoniyatlari) o'rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida, o'quv mashg'ulotlari estetik tarbiyaning muhim ahamiyati, o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda estetik tarbiyaning muhimligi, amaliy san'atni sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'rgatilishining o'ziga xos xususiyatlari hamda tajriba-sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili keltirib o'tilgan.

S.Muranov o'z ishining ilovasida jadval, chizmalar va rasmlarni kyeltirgan. Ulardagi ma'lumotlar ishning yuqori ilmiy saviyada bajarilganligidan dalolat byeradi. Shu bilan birga ishda ayrim kamchiliklar uchraydi:

- intyernyet ma'lumotlari kam ko'rsatilmagan;
- ishni yozishda ayrim orfografik xatolar uchraydi;
- adabiyotlar tahlilida kamchiliklar bor.

Yuqoridagi kamchiliklar ishning umumiy qiymatini tushurmaydi.

S.Muranov o'z ishini yuqori saviyada bajarganligi malakaviy bitiruv ishining amaldagi Nizom talablariga to'la javob byerishini hisobga olib, DAK dan uni ijobiy baholashlarini so'rayman.

Samarqand Davlat universiteti dosenti, p.f.n.:

“Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi” mudiri:

B.Doniyev

A. Navoiy nomli SamDU 5A140901 –Kasbiy ta’lim (Amaliy san’at) magistratura mutaxassisligi bitiruvchisi Muranov Samandar Baxridinovichning “Kasb-hunar kollejlari o’quvchilarini amaliy san’at vositasida estetik tarbiyasini shakllantirish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar san’atshunoslik f.n.dots. H.Jo’rayev

MULOHAZASI

Kasb-hunar ta’limi muassasalarida amaliy san’at ixtisosligi bo’yicha o’quvchilarni tayyorlashda o’quv rejalaridagi mutaxassislik fanlari guruhidagi amaliy san’at fanlari alohida o’rin tutadi.

Muranov Samandar tomonidan bajarilgan mazkur tadqiqot ishida oliy pedagogika ta’lim jarayonida amaliy san’at fanini o’qitishda talabalarga maktab va kasb-hunar ta’limiga tayyorlash fan dasturining asosiy mazmun va mohiyatida ishlab chiqqan holda amaliy san’atini boshqarish uchun zarur bo’lgan bilimlar tarixi, o’qitish qonun-qoidalarini yoritib berilgan.

Ishning asosnomasida mavzu muammosining o’ziga xos dolzarbligi jihatlari ishonchli dalillar bilan asoslangan, muammoning o’rganilganligi va ta’lim jarayonidagi bugungi holati va uni zamonaviy talablar asosida tashkil etish ilmiy nuqtai nazardan talqin etilgan.

Ishning birinchi bobida mamlakatimizda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi taraqqiyoti, kasb-hunar kollejlarda kichik mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish pedagogik asoslari, kasb-hunar kollejlarda estetik tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlari (estetika fanining didaktik imkoniyatlari) o’rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida, o’quv mashg’ulotlari estetik tarbiyaning muhim ahamiyati, o’quvchi-yoshlarni tarbiyalashda estetik tarbiyaning muhimligi, amaliy san’atni sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o’rgatilishining o’ziga xos

xususiyatlari hamda tajriba-sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili keltirib o'tilgan

Ishni bajarilishida amaliy san'at fanini o'qitishda to'plangan, amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan tajribalar va nazariy ma'lumotlar muallif tomonidan yetarli darajada o'rganilgan. Ularni yanada takomillashtirish, yanada ish, usul, shakllaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan va shu bilan birga eng muhim ish nihoyasida ilmiy - amaliy ahamiyatiga moyil xulosalar chiqarilgan va zarur tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishda ayrim juz'iy hatoliklarga ham yo'l qo'yilgan bo'lsada, u mustaqil izlanish natijasi va tugallangan tadqiqot sifatida e'tiborga loyiqdir.

Muranov Samandar Baxridinovichning "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini amaliy san'at vositasida estetik tarbiyasini shakllantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining magistrlik dissertatsiyalarini bajarishga qo'yilgan talablarga javob beradi.

Ishni shu tarzda ochiq himoyaga tavsiya etishni mumkin deb topaman hamda dissertatsiya yuqori saviyada tayyorlangan.

Ilmiy rahbar:

san'atshunoslik f.n.dots. H.Jo'rayev

**Mavzu: Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini amaliy san'at vositasida
estetik tarbiyasini shakllantirish**

Reja

Kirish.

**I Bob. O'zbekistonda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tarixi,
rivojlanishi va taraqqiyoti va istiqbollari**

1.1 Mamlakatimizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi taraqqiyoti.

1.2 Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish pedagogik muammo sifatida.

1.3 Kasb-hunar kollejlari estetik tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari (Estetika fanining didaktik imkoniyatlari).

I- bob bo'yicha xulosa

**II Bob. Kasb-hunar kollejlari amaliy san'at vositasida o'quvchilarni
estetik tarbiyalashning samarali shakllari va vositalari.**

2.1 O'quv mashg'ulotlari estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida.

2.2 Amaliy san'atni sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'rgatilishining o'ziga xos xususiyatlari.

2.3 Tajriba-sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili.

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Mavzu: “Kasb-hunar kollejlari o’quvchilarini amaliy san’at vositasida estetik tarbiyasini shakllantirish”

Mundarija

Kirish.....

I Bob. O’zbekistonda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining tarixi, rivojlanishi va taraqqiyoti va istiqbollari.....

1.1 Mamlakatimizda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi taraqqiyoti.....

1.2 Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish pedagogik muammo sifatida.....

1.3 Kasb-hunar kollejlari estetik tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlari (Estetika fanining didaktik imkoniyatlari).....

II Bob. Kasb-hunar kollejlari amaliy san’at vositasida o’quvchilarni estetik tarbiyalashning samarali shakllari va vositalari.....

2.1 O’quv mashg’ulotlari estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida.....

2.2 Amaliy san’atni sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o’rgatilishining o’ziga xos xususiyatlari.....

2.3 Tajriba-sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili.....

Umumiy

xulosalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Kirish:

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, hayotning siyosat va iqtisodning xalq ho'jaligi va ishlab chiqarishning, manaviyat va marifatning, san'at, madaniyat va sanoatning barcha sohalarida turli xil chuqur islohotlar amalga oshirilishiga mos ravishda amalga kishilarning ruhiyatiga, tafakurida, ongli hayotida ma'naviyatida, dunyoqarashida oshirilgan o'zgarishlar uzluksiz ta'lim tizimida ham o'z o'rnini topdi. Mamlakatimizda qat'iy ravishdagi uzluksiz ta'lim tizimi qaror topdi, yuqori malakali, oily ma'lumotli va o'rta maxsus ma'lumotli kichik mutaxassislar tayorlaydigan 12 yillik majburiy ta'lim, 4 yillik bakalaviyatura va 2 yillik magistratura bosqichlari shaqillandi va barcha sohalar uchun bu tizimda kadrlar yetkazib berilmoqda va yuksak ma'naviyatli, barkamol, ruhan tetik, aqlan teran yangi sharoitlarga tez moslasha oladigan insonlarni tarbiyalab yetishtirmoqda.

Vatanimiz prizidenti I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida bu haqida "ma'naviyat-insonini ruhan tetik, ruhan poklanish, qalban uyg'onishga chorlaydigan odamning ichki dunyosi, irodasini mustahkamlaydigan, iymon-e'tiqodini butun qiladigan vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib berayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz" deb takidlaydilar. Demak, shakllanayotgan shaxslarning avvalo ruhiy dunyosini barkamollashtirish, zamon talablariga moslashtirish xayotda ishlab chiqarishda o'z o'rnini topib olishiga uzluksiz ta'lim tizimining va bunda yangidan tashkil etilgan o'rta maxsus kasb-hunar talimining o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining tashkil etishi takomillashtirilishi tarraqiy etishi va ushbu sohada kichik mutaxsislarni ko'plab tayyorlashi alohida e'tiborga molik islohatlardan hisoblanadi.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Ta'lim-tarbiya tiziminig turli bo'g'imlarida kasbiy mahoratli kadrlarni tayyorlash ularni turli kasb-hunarlariga

yo'naltirish holatlari bilan turli davrlarda, turli davlatlarning turli olimlari tadqiqotchilari, shug'ullandilar. O'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida tal'im tarbiya ishlari mazmunini takomillashtirish bilan O'zbekistonda X. G'. Rashidov, J.Y. Haydarov, I. Mahmudov, H.Ibragimov, S.Utanazarov, E.Ro'ziyev, J.Jumayev, D.Zohidova, R.CHoriyev, U.Haydarov, I.Misliboyev, D.Nosirova, M.Dehqonova, M.Yunusovlar rasiyalik pedagog olimlar S.Ya.Batishev, B.S.Germunshkiy, M.I.Eretskiy, S.I.O'tishuk, A.P.Sayteshev,

M.I.Mahmutov va boshqalar shug'ullandilar.

Insoniyat jamiyati taraqqiy etgandan boshlab, u yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanib keladi ularni kelajakka tayyorlaydi. Xalq hunarmanchiligi, amaliy, tasviriy musiqa sanati, ham insoniyat paydo bo'lganidan boshlab bajarilayotgan faoliyati turlaridan hisoblanadi, hamda ularni insonlar yosh avlodiga o'rgatib kelmoqdalar.

Turli xalqlarning muqaddas g'oyalari, dinlari hisoblangan xristiyanlarning "Injil" iudaizmning "Tavrot", "Zobur", zardushtiylarning "Avesto" buddizmning vedalari islom dinining "Qur'oni karim" hadislarida ham insoniyatning yosh avlodiga ilmu fan, kasb-hunarlar, halol mehnat qilishni o'rgatishning afzalligini uqdirib kelmoqdalar.

Buyuk mutafakkirlar Konfutsiy (eramizdan avvalgi 9-8 asrlar, Xitoy) Aristotel (eramizdan avvalgi 5-4 asrlar Yunoniston) Platon, Demokrit (Gretsiya, Yunoniston) va sharq mamlakatlari allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Al Farg'oniy, Al Motrudiy, Bahoviddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, ulug' musavvirlar Kamoliddin Behzod, Naqqosh Mirak, Bobur va boshqalarning asarlarida tasvirlangan .

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida kichik mutaxasislarni tayyorlashni takomillashtirishda mamlakatimiz pedagog olimlaridan P.X.Jurayev "Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik mutaxasislarni tayyorlashni takomillashtirishda yoshlarni kasb-hunar tayyorgarligini takomillashtirish nazariyasi va amalyoti"

asarida D.Isaeva “Pedagogika kollejlarda boshlang’ich sinflar boyicha kichik mutaxasislarni tayyorlashda amaliy mashg’ulotlarning o’rni, Botirov T. “Kichik mutaxassislar tayyorlashda xalq pedagogikasi va “ustoz shogird “ ananalari”, Ibragimov H. “O’rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida pedagogik tashhishlash yo’llari” Yo’ldoshev A. “Kasb-hunar ta’limida tarbiya’ning ilmiy asoslari”, Ro’ziyev I. “Kichik mutaxassislar tayyorlash muammolari” kabi nashr ishlarida o’z fikr mulohazalarini yuritdilar. Ammo, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida talim ta’rbiya sohalarining turli yo’nalishlarining amalga oshirishda bir qancha muammolar ham mavjud. Masalan, o’rta maxsus kasb-hunar talimi muassasalarida zamonaviy ta’lim axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bilan birgalikda milliy qadryatlardan to’liq qo’llanilmasligi, zamonaviy va milliy ishlab chiqarishdagi ish o’rinlari bilan bitiruvchilarning miqdorining nomutanosibliigi;

O’rta maxsus kasb-hunar talimini muassasalarida ya’ni, akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda ta’lim tarbiya ishlarini tashkil etishdagi mavjud muammolar bizga magistrlik tadqiqotini mavzusini quyidagicha tashkillashga imkon yaratadi;

Kasb-hunar kollejlari o’quvchilarini amaliy san’at vositasida estetik tarbiyasini shakllantirish;

Tadqiqot maqsadi; Kasb-hunar kollejlari o’quvchilariga amaliy sa’nat turlari vositasida estetik tarbiyani takomillashtirish .

Tadqiqot obyekti; Kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida amaliy sa’nat turlari vositasida “Estetika asoslari” fanini o’qitish jarayonini takomillashtirish .

Tadqiqot predmeti; Kasb-hunar kollejlarda Estetika tushunchalar va ko’nikmalarni “Estetika”fani turli o’quv-tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etish yo’llari shakllari va metodlari.

Tadqiqotchilarning vazifalari 1) Kasb-hunar kollejlarda “Estetika asoslari” fanining auditoriya mashg’ulotlarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash.

2) Amaliy sanat turlaridan ganchkorlik, Yog'och o'ymakorligi va Naqqoshlikning "Estetik" tarbiyani takomillashtirishdagi o'rnini belgilash .

3) Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning estetik tushuncha, ongi, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish va rivojlantirishda auditoriyadan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarining o'rnini ahamiyatini belgilash .

4) Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni estetika tarbiyasini kasb-hunar talimini takomillashtirish bo'yicha turli xil maqolalar yozish va chop etish orqali amaliyotga joriy etish .

Tadqiqotchining tajriba sinov maydonchalari etib Samarqand shahridagi hunarmandchilik qurilish kasb-hunar kolleji hamda Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi qurilish kasb-hunar kolleji va Barlos xizmat-ko'rsatish kasb-hunar kolleji A.Navoiy nomidagi SamDuning "Musiqqa, sanat va mehnat ta'limi" fakultetining amliy sa'nat yo'nalishi guruhlari tanlandi .

Tadqiqotda quydagi uslublardan foydalanildi:

Kuzatish turli xil adabyotlar bilan tanishish, so'rovnomalar, anketalar, testlar o'tkazish, qayd qilish, rasmlarga olish, suhbat, olingan natijalarni matematik-statistik, jihatdan, qayta ishlash, umumlashtirish.

1-BOB. O'zbekistonda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tarixi , rivojlanishi va taraqqiyoti va istiqbollari.

1.1 Mamlakatimizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi taraqqiyoti.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari ishlab chiqarish iqtisodiyoti, xalq va qishloq xo'jaligi, ma'naviyati, ma'rifat, madaniyati, sa'nat, sa'nat va hunarmandchilik, qurilish, mashinasozlik va turmushning boshqa sohalariga uyg'unlashgan

xildagi rivojlanish tarixga ega .

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng taraqqiyotning barcha sohalarida tub dan o'zgarishlar amalga oshirildi. Ana shu o'zgarishlarning amalga oshirilishida, albatta, barcha yo'nalishlar uchun yangicha ruxiyatdagi va yangicha kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlar zarur bo'ladi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, qurilish, xizmat ko'rsatish, sanoat, madaniyat, san'at va xalq ta'limi (maorif), harbiy sohalar, ilm-fan hamda ishlab chiqarishning turli sohalarida tubdan yangilanishlar ro'y berdi. Ishlab chiqarish vositalarining, qurollarining, ob'yektlarining hamda qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yerga egalik qilishning davlat hisobidan xususiy shaxslarga o'tishi, mamlakatimiz mashinasozligining shakllanishi va rivojlanishi Andijondagi O'zbekiston-Koreya avtomobilsozlik DAEWOO qo'shma korxonasi 10 dan ziyod turdagi avtomashinalar ishlab chiqarishi, Samarkanddagi dastlab Turkiya davlati bilan ish boshlagan, so'ngra, Yaponiya bilan davom ettirilgan "Otayo'l", "Isuzi" avtomobillarining ko'plab modifikasiyalarining ishlab chiqilishi, ko'plab og'ir va yengil sanoat korxonalarining xususiylashtirilishi, mehnat va kasb-hunar emigrasiyasi (aholining ba'zi qismlarining boshqa davlatlarda ishlab, mablag' topishi) va boshqa davlatlar sarmoyalarining O'zbekistonga kirib kelishi, juda ko'plab xorijiy davlatlar tadbirkorlarining mamlakatimizda qo'shma va xususiy korxonalar qurishlari va ushbu korxonalarining ishlarining yo'lga qo'yish uchun chet el investisiyalarining kiritilishi ham taraqqiyotning tezkor sur'atlarda jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Taraqqiyotning ana shu turli qirralarga most holda nisbatan qiska vaqtda, taxminan 15-20 yil davomida, jadal rivojlanishda faol ishtirok etish uchun yangicha turdagi mahoratga ega bo'lgan, turli murakkab sharoitlarga tez moslashuvchan, egiluvchan, tashabbuskor, yangiliklarni tez qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash zaruriyati kelib chiqdi.

Turli sharoitlarda va har xil sohalarda samarali faoliyat ko'rsata oladigan tashabbuskor, faol va moslashuvchan kadrlarni tezkor ravishda tayyorlash uchun uzluksiz ta'lim tizimi ham tubdan o'zgartirildi. Bu sohadagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" hamda ushbu Qonuniy me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlash uchun qabul qilingan ko'plab farmonlar, buyruqlar va farmoyishlar asosida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizda 60 dan ziyod oliy o'quv yurtlarida va 100dan ziyod o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari (davlat rejasi bo'yicha 1711 ta) hamda 100 dan ziyod akademik-litseylarda (reja bo'yicha esa 170 dan ziyod) xalq xo'jaligi, turmush va ishlab chiqarish uchun kadrlar tayyorlanmoqda.

Respublikamiz Vazirlar Maxkamasi tomonidan 1998 yil 23 sentyabrda "1999-2005 yillarda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi" ni qabul qilish to'g'risidagi 406-sonli qarorga muvofiq, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarini yangidan qurish, moslashtirish, qayta ta'mirlash yo'li bilan ishga tushiriladi. Ushbu qarorga muvofiq, aholisi 15-25 ming kishini tashkil qilgan har bir xududda 5-10 km masofa oralig'ida belgilangan yo'nalishlarda kasb-hunar kollejlari barpo qilinishi mo'ljallangan. Bu haqda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da shunday deyilgan; "Kasb-hunar kollejlari tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik egallash imkonini beradi". Milliy dasturda ko'rsatilganidek, kasb-hunar kollejlarning xayotiyligini

oshirish uchun, ya'ni, ularning bitiruvchilarini imkon darajasida tezroq va ko'proq ish bilan ta'minlanishlarini hamda yangi ish sharoitlariga tez va oson moslashishlari uchun ularga 2-3 va xatto undan ortiq kasb-hunarlar o'rgatilib tegishli hujjat (diplom)lar berilmoqda. Hozirgi davrda xalq xo'jaligi, turmushi, san'at va madaniyat, maorifda ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalariga mos holda, zamonaviy rivojlanish talablarini hisobga olgan holda jihozlangan 100 dan ziyod kasb -hunar kollejlari (kelgusida KXX) qurilib, ishga tushirildi va har yili yarim milliondan ziyodroq (to'g'rirog'i 650 mingdan ziyod) bitiruvchilarni yetkazib bermoqda. Mamlakatimizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimida kichik-o'qituvchi pedagoglarni tayyorlash ham salmoqdi ravishda olib borilmoqda. Har bir tuman markazida, yirik shaharlarda, jami, taxminan 300 dan ziyod pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'qituvchi - tarbiyachilar, to'garaklar rahbarlari, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari, bolalar yetakchilari, mehnat ta'limi, tasviriy san'at, musiqa madaniyati, jismoniy tarbiya fanlari bo'yicha o'qituvchi-murabbiylar tayyorlab berilmoqda. Hozirgi davrda maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi-pedagoglar miqdori, oliy ma'lumotli o'qituvchilarga nisbatan salkam 2 barobar ko'proqni tashkil etadi, ya'ni, 10 mingga yaqin maktablarda «ishlab turgan o'qituvchilarning umumiy soniga nisbatan (yuqoridagi umumta'lim fanlari bo'yicha)26-45 foizini o'rta maxsus ma'lumotlilar tashkil etadi. Chunki, 2004-2005 yilgacha boshlang'ich va mehnat ta'limi, tasviriy san'at, musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya kabi umumta'lim fanlari o'qituvchilari ko'proq pedagogika yo'nalishidagi texnikumlarda va bilim (o'quv) yurtlarida hamda pedagogika institutlarida tayyorlanar edi.

Mamlakatimizda 1849 yillardan boshlab, rus imperialistlarining kirib kelishlari bilan birgalikda, rus-tuzem maktablari ham faoliyat ko'rsata boshladilar. Markaziy Osiyo xonliklarining (Qo'qon, Xiva) va Buxoro amirligining Rossiyaga qo'shilib olinishini jadallashtirish uchun o'lkada 1867

yilda Turkiston general -gubernatorligi tashkil etildi. Turkiston general-gubernatori Kaufmanning 1873 yilda podshox hukumatiga yuborgan nomasida bu o'lkadagi ta'lim muassasalari Nizomi tartibi, turlari haqida shunday ma'lumotlarni bayon qilinadi: «1. Toshkentdagi mahalliy aholining bolalari o'qishi mumkin bo'lgan umumiy asosdagi erkaklar gimnaziyasi; 2. Mahalliy tillarda o'qitiladigan 3 yillik muddatli ko'relarga ega o'qituvchilar seminariyalari; 3. Seminariyalar Uzbeklar va ruslar uchun o'lka va mahalliy xalq 11 yillik ta'lim maktablari» .

Ushbu Nizom 1875 yilda tasdiqlangach, 1876-1877 o'quv yilidan Toshkentda, Samarqandda va Skobelov (hozirgi Fargona Marida (Marv) va boshqa shaharlarda ayollar va erkaklar gimnaziyalari faoliyat ko'rsata boshladi. 1876 yil Toshkentda Turkiston o'lkasi bo'yicha o'quv muassasalari boshqarmasi tuziladi va shu boshdarma qoshida o'quv yurtlaridagi ishlarni tashkil etish uchun bir necha yo'riqchi nazoratchilar tayyorlanadi. Ammo, ko'pchilik joylarda hano'zgacha madrasalar faoliyat ko'rsatayotganligi sababli, ularda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni va rus tilini o'qitish kiritildi va kengaytirildi, zamonaviy seminariya va gimnaziyalarda esa mashg'ulotlar musulmonlar

(o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tojik) tilida olib borishga e'tibor kuchaytirildi. Ushbu o'quv yurtlarida dars jadvallarining tuzilishi va ta'lim jarayonining tashkil etilishi mazmuni, masalan, quyidagicha bo'lgan:

1870-1890 yillarda Samarkanddagi rus-tuzm maktabining dars jadvali

1-jadval.

Vaqtning taqsimlanishi	9 ⁰⁰ -9 ⁵⁵	10 ⁰⁰ -10 ³⁰	10 ³⁰ -11 ²⁵	12 ³⁰ -14 ³⁰
Yakshanba	Kattalar bo'limida rus tilidan yozma mashqlar	Arifmetika	Yozma hat	Mahalliy o'qituvchilar bilan mashg'ulotlar
Dushanba	Ruscha so'zlar talaffuzi	O'rganishlar materiyallarni takrorlash	Arifmetika	Mahalliy o'qituvchilar bilan mashg'ulotlar
Seshanba	Kichik bo'limda yozma mashg'ulot	Kattalar bo'limida yozma mashg'ulotlar	Arifmetika	Mahalliy o'qituvchilar bilan mashg'ulotlar
Chorshanba	Kichiklar bo'limida o'qish	Kattalar bo'limida yozma xat	Arifmetika	Mahalliy o'qituvchilar bilan mashg'ulotlar
Payshanba	Arifmetika	Ruscha so'zlar talaffuzi	Kattalar bo'limida o'qish	Mahalliy bilan mashg'ulotlar
Juma	DAM OLISH	KUNI		
Shanba	Kattalar bo'limida ruscha so'zlar	Kichiklar bo'limida ruscha so'zlar o'rganish	Arifmetika	Mahalliy o'qituvchilar bilan mashg'ulotlar

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy mashg'ulotlar rus tilini va arifmetikani o'rgatishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu maktablar negizida o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlash ishlari ham olib borilgan.

Turkiston o'lkasida 1919 yilda maorif xalq komissariata tuziladi va ushbu komissariat tashabbusi bilan 1920 yilda K.A Timiryazev nomidagi xalq maorif instituta ochildi va uning tajribasi asosida qirg'iz, turkman, qozoq., tojiklar uchun erkaklar va ayollar maorif institutlari tashkil etilib, faoliyat ko'rsata boshladi. 1918-20 yillarda Turkistonda 1139 ta yangi tipdagi maktablar ishlab turar edi. 1919 yil 1 martda bo'lib o'tgan Turkiston respublikasining favquloddagi 7-syezdida qilingan bosh ma'ruzada «O'quvchilarning mehnat kommunalari haqida

Nizom» va «O'quvchilarning mehnat uyushmalari» haqidagi hujjatlar K.Libknext nomli maktabning ish tajribalariga tayangan holda ilova qilindi. Jumladan, ushbu hujjatlarga qo'shimcha ravishda o'quvchilarni qishloq xo'jalik mehnatiga jalb etishni kengaytirish maqsadida «Maktab-xutorlar haqida Nizom» (1919 yilda), 7 yillik boshlang'ich va 3 yillik hunar maktablarini tashkil etish to'g'risida "Yo'l-yo'riqlar" va "Mehnat maktablari" to'g'risida hujjatlar tayyorlanib, amalga joriy qilina boshlandi. Ushbu mehnat va hunar maktablariga o'qituvchi-murabbiylar tayyorlab yetkazish uchun «Hunarmandlarning amaliy maktabi» (hunarlar akademiyasining 1-bosqichi)da ular qo'l mehnatiga o'rgatilib borilgan. 1919 yil 28 yanvarda Turkiston xalq maorifi Komissarligi Hay'atining o'lkada 3-4 oylik va 6 oylik o'qituvchilarni tayyorlash kurslarini ochish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Ushbu kurslarda o'lkashunoslik (Turkiston tarixi), zoologiya(xayvonot olami), botanika(o'simliklar olami), geometriya, algebra, siyosiy iqtisod, psixologiya va pedagogikadagi turli oqimlar to'g'risida ma'ruzalar o'qilgan. Ta'limning ko'rgazmaliligiga e'tibor berilgan va qo'l mehnati bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilgan. Ushbu kurslar (pog'ona- pog'ona) usulida tashkil etilib,ular dastlab markazda (Toshkentda), so'ngra viloyatlar (hozirda mustaqil respublikalar markazlarida – Qozog'istonda Verniy (Olma-ota), Qirg'izistonda Bishkek, Tojikistonda Dushanbe, Turkmanistonda Ashxobod) va boshqa uyezdlarda(hozirgi viloyatlar markazlari) va joylarda davom ettirildi. 1920 yilda ushbu uslubda ishlaydigan Toshkentda maktab axborotchi-yo'riqchilari tayyorlovchi P.N.Lepeshinskiy nomli 2 oylik o'quv kursi ishlay boshladi. Ushbu o'quv kurslarini tezda 353 kishi bitirgan. Umuman olganda, 1920-yillarda Turkistonda o'qituvchi-kadrlar quyidagi yo'nalishlarda tayyorlangan (yoki qayta tayyorlangan)

1. Turli (2-6-12 oylik) muddatlar tayyorlash bo'yicha pedagogik kurslarida o'qish muddatlari tinglovchilarining tayyorgarlik darajalariga bog'lik bo'lib, bunday kurslar 2 bosqichli maktablarga (hozirgi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bosqichiga- J.R.) tenglashtirilgan.

2. Maktab pedagoglarini yagona mehnat maktabi (yoki o'lkashunoslik, hunarmandlik va boshqalar) an'alariga moslashtirilgan holda qayta tayyorlash o'quv kurslari;

3. Bir va ikki bosqichli maktablar negizida tashkil etilgan pedagogika bilim yurtlari, texnikumlari, institutlarida malakali maorif xodimlari tayyorlash va qayta tayyorlash:

4. O'zbek o'qituvchilarini K.A.Timiryazev nomidagi maorif institutida faoliyat ko'rsatadigan davomli kurslarda tayyorlash va qayta tayyorlash;

5. O'qituvchi kadrlarni Moskva, Qozon, Boku, Astraxan va boshqa shaharlar o'quv yurtlarida Turkistonda faoliyat ko'rsatishlari uchun tayyorlash, qayta tayyorlash.

6. Maktablarning tajribali pedagoglari yordamida ilg'or tajribalarni o'rganish kurslarida yo'riqchilar sifatida tayyorlash.

1922 yilda Turkistonda pedagogika o'quv yurtlari tizimi quyidagicha tashkil etilgan edi:

Uzbek tilida: ayollar va erkaklar maorif institutlari, Toshkent shaxrida pedagogika texnikumi, Toshkent viloyatida pedagogika bilim yurti, Kukon va Samarkandda pedagogika bilim yurtlari.

Qozoq, qirg'iz tilida; Olma-ota va Chimkentda pedagogika bilim yurtlari va institutlari; Poltarask va Marv(Mari)shaxrida maorif instituti; Tatar maorif "Instituta; Karl Libknext nomli mehnat tajriba maktabi qoshida rus pedagogika texnikumi.

Ushbu o'quv yurtlarida o'sha yillarda 2220 nafar o'quvchi, talaba(tinglovchi) ta'lim olgan 1924 yilgacha o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlashda asosan, quyidagi holatlarga e'tibor qaratilgan. Birinchidan, mazkur pedagog-kadrlar faoliyati o'quvchilarga tarbiya emas, ko'proq turli fanlar bo'yicha bilimlar berishga va dastlabki amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ikkinchidan, o'qituvchi va o'quvchilar ma'naviyati, siyosiy, g'oyaviy dunyoqarashini turli tomonga emas, yagona socialistik (kommunistik)

sinfiiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishni maqsad qilib qo'yilgan. Uchinchidan, o'qituvchilar tayyorlanayotgan maktablar yagona mehnat, politexnika maktablari sifatida tashkil etilganligi tufayli, shakllanayotgan shaxslarni har tomonlama emas, ko'proq mehnat yumushlarini bajarishga yo'naltirilgan. To'rtinchidan, mazkur davrda o'qituvchilar ko'proq, amaliy mehnatning qo'lda bajariladigan ish-harakat usullarini o'quvchilarga bajartirib, ko'proq mehnat va hunar maktablarida faoliyat ko'rsatishga tayyorlangan. Beshinchidan, o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlashda sinfiy pedagogikaga ko'proq e'tibor berilgan bo'lib, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi va bolalar (maktab) psixologiyasi bopqa fanlarga nisbatan kamroq o'rgatilgan.

Mamlakatimizda 1924 yilda 13 ta pedagogika bilim yurti va bir nechtagina maorif institutlari mavjud edi. 1930 yilda 1-4 sinflarda 153 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1931-32 o'quv yillarda 581 ta maktabda 6692 ming o'quvchi ukidi. 1931 yilda 14 ming o'qituvchi tayyorlangan, shundan pedagogika texnikumlarini 2358 nafar, pedagogika yo'nalishidagi ishchilar fakultetlarini 1104 kishi bitirdi. 1933 yilga kelib respublikada 34 ta pedagogika bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. 1930 yil O'zbekistan Maorif Komissarligi Markaziy qo'mitasi tomonidan "O'zbekistonda o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish instituta ochildi. Mazkur institutda shahar maktablari o'qituvchilari uchun kechki ta'lim, qishloq, maktabi o'qituvchilari uchun sirtki ta'lim faoliyat ko'rsata boshladi. 1934-39 yillarda 7 yillik maktablar qoshida kechki pedagogik maktablar faoliyat ko'rsatib, bu davrda ushbu pedagogik kurslarni 70 ming kishi tugalladi. Mamlakatda 1939 yil 1 yanvardagi attestasiya yakunlariga qaraganda, 28600 o'qituvchidan 27514 kishi attestasiyadan o'tgan, 1256 kishining sinovlari keyingi yillarda o'tkazilgan.

Mamlakatimizda o'rta maxsus kasb hunar ta'limi 1990-1991 yillargacha hunar-texnika bilm yurtlari (professonalno-tenicheskoye uchilishе-PTU) o'rta yoki qishloq kasb hunar bilm yurtlari (sredneye (selskoye) professonalno-

tenicheskoye uchilishе-PTU), shahar hunar texnika o'quv yurtlari (gorodskoye professionalno-tenicheskoye uchilishе-PSPTU)lar 3,6,8,10 oylik va 1-1,5,2 yillik o'quv kurslariga 6-oylik, 1-yillik stajirovkalar, ko'chma xizmat safarlari asosida 3,6-12 oylik muddatda turli shaharlarda mehnat amaliyotlarni o'tkazish orqali turli xil kasb hunarlar o'rganilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflarini tugallagan kishilarga PTU larda o'qishi 1 yil 2 oy, 8-sinflarni bitirgan yoshlarga o'qish muddati 3 yil qilib belgilangan. Bundan tashqari har bir umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida (asosan 8-9-10 sinflarida) oshirilgan mehnat ta'limi darslarini kasb hunarlarni o'rganishga yo'naltirish evaziga har bir o'quvchi bitiruvchiga biror xil kasb hunarni o'rganish va tegishli hujjat guvohnoma olish orqali taqdirlangan. (umumta'lim maktablarida 7-8 sinflarga xaftasiga 4-soatdan, 9-10 sinflarda 6-soatdan dars ajratildi).Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limi darslarini chuqurlashtirib o'tish (ya'ni, 9-10 sinflarda xaftasiga 6-7-8 soatdan o'tish evaziga maktablar o'quv ishlab chiqarish kombinatlari (mejnekolnoye uchebno-prizvodtvenniy kombinat-MUPK)lar ko'rinishda hamda markazlashgan mehnat ta'limi ustaxonalari ko'rinishida kasb-hunar o'rgatish ishlari tashkil etilgan va bitiruvchilarga tegishli namunadagi hujjatlar guvohnomalar, sertifikatlar berilgan PTU lar o'qish davrida o'quvchilarga oylik, stipendiyalar, bepul maxsus kiyim-boshlar, bepul ovqatlar bilan ham ta'minlangan. Ammo, o'sha davrdagi kasb hunarlarni o'rganishdagi har xilliklar kichik mutaxassislarni tayyorlash sifat darajalarining ham turli tumanligiga olib kelar edi.Ya'ni, 3-6-10 oylik o'quv kurslaridan 1va 3 yillik PTU lardagi MUPK lardagi kasb-hunarlarni o'rgatish uchun tashkil etilgan har-xil o'quv rejalari va dasturlari asosida o'quv jarayonida har-xillikni keltirib chiqardi. Ana shu har xilliklarning barchasiga mustaqillikdan keyin barham berilib, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda 3-yillik ta'lim asosida olib borila boshlandi. Akademik litseylarda ta'lim biror ixtisoslikni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan, takomillashtirilgan, kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan shaklda olib boriladi va asosan 6-xil yo'nalishda o'quvchilar o'quv yurtlarga kirishga tayyorlanadilar.

Ijtimoiy siyosiy va gumanitar fanlar (tillar) aniq va tabiiy fanlar, xorijiy tillar va iqtisodiyot yo'nalishlaridagi ta'lim 4560-soatlik yuklamada olib borilmoqda. Hozirda Respublikamizda 140 dan ziyot akademik litseylarda o'quvchilarga chuqurlashtirilgan ta'lim berilmoqda.

Kasb-hunar kollejlari xalq va qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, manaviyat, madaniyat va marifatning, sanat va sanoatning, xalq hunarmandchiligi, qurilish, mashinasozlik, va boshqa sohalarning 40ga yaqin sohasi bo'yicha 1300 ga yaqin kollejlar ochilgan bo'lib, ularni har-yili 500-600 ming bitiruvchi bitirib chiqadi. Jamiyatni navbatdagi dolzarb vazifalaridan biri, ana shu bitiruvchilarning bandlik xizmatini ham tashkillashtirishdir, ya'ni, ularni ish o'rinlari bilan bosqichma-bosqich bo'lsada taminlab borish.

1.2. Kasb-hunar kollejlarida kichik mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish pedagogik muammo sifatida.

Uzluksiz ta'lim tizimida barcha sohalar uchun kadrlar tayyorlash ishi ta'lim-tarbiya tizimining quyi bosqichlari uchun o'qituvchi-pedagoglar tayyorlash bilan xususan, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida kichik mutaxassislar tayyorlash bilan bir-biriga uyg'unlashgan holda olib boriladi. Chunki, xalq xo'jaligi va ishlab chiqarishning ta'lim-tarbiyadagi boshqa sohalari uchun kadrlar tayyorlashda yagona sohalarning har biri uchun o'qituvchi-professorlar, pedagog-murabbiylar tayyorlash, qayta tayyorlash, kasbiy mahoratlarini uzviy ravishda takomillashtirib borish kabi muammolar bilan tuqnash keladilar.

O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida kichik pedagog-kadrlarni tayyorlashda ro'y berayotgan murakkabliklar va ularning yechimlarini topish bo'yicha muammolarni shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin.

1-Bosqich. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflari bitiruvchilarining, kasb-hunar kollejlariga qabul qilinishigacha bo'lgan davrda, kasb tanlashlari jarayonida uchraydigan muammolar.

2-Bosqich. Pedagogika yo'nalishidagi kasb hunar qo'llejlarda kichik mutaxassislarni tayyorlashda, jumladan, mehnat ta'limi tashkilotchilarini ya'ni,

to'garaklar rahbarlari va boshqa mehnat ta'limi tadbirlari, o'quvchilar mehnat uyushmalari, mehnat amaliyoti rahbarlarni tayyorlash bo'yicha uchraydigan muammolar.

3-Bosqich. Yoshlarning pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarni bitirgach, ishga joylashishlari va kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari, ya'ni, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha muammolar.

Respublikamizdagi 10 mingga yaqin umumta'lim maktablarining 9-sinflarini bitirgan yoshlarning asosiy qismi kasb-hunar kollejlarining 1-kurslariga hujjat topshirishlarida aynan pedagogik yo'nalishdagi o'quv muassasasini (xususan, mehnat ta'limi yo'nalishini) ongli ravishda tanlashlari uchun yetarli darajada targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi, ularning ongli ravishda kasb-hunarlarini tanlashlarining asosli, mustaqil, turg'un omillarini aniqlash, qiziqishlari va moyilliklarini sabablarining chuqur va har taraflama o'rganish lozimligi tabiiy extiyojga aylanib bormoqda.

O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarda yuzaga kelayotgan muammolar jamiyat taraqqiyotining boshqa jamiyatlarini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham o'quvchi yoshlarning kasb-hunar kollejlarining (kelgusida KXX) u yoki bu mutaxassisliklariga hujjat topshirishlari (yoki topshirmasligi)ning asosiy sabablarini qidirib topish, o'rganish va umumlashtirish, xulosalash lozim bo'lmoqda.

Turli tadqiqotchilar, yetakchi mutaxassislar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi mavjud muammolarni turlicha sharhlamoqdalar. Masalan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining yetakchi mutaxassisi A. Jamolov o'zining "Kasbiy o'zgaruvchanlik va kichik mutaxassislar tayyorlash muammosi" nomli maqolasida tizimdagi mavjud muammolarni kasbiy o'zgaruvchanlikka bog'laydi va "kasbiy o'zgaruvchanlikning ikki turi tik yoki yotiq,(vertikal,gorizontal) kasbiy o'zgaruvchanlik mavjud. Vertikal (tik) kasbiy o'zgaruvchanlik xodim malakasining rivojlanish jarayoni bo'lib, yutiq kasbiy o'zgaruvchanlik esa, ishchi

xodimning o'zi shug'ullanayotgan kasbini boshqa kasbga kam harajat sarflab, tez o'zgartira olish qobiliyatidir" deb ta'kidlaydi.

Bu hol bizningcha, kichik mutaxassisning ma'lum kasbiy ko'nikmalarni egallagach, ishsiz qolishi yoki qolmasligiga doirdir. Muallif kichik mutaxassislarning ish bilan ta'minlanishlari bo'yicha muammoning yechimlarini topish chora sifatida "kasb-hunar ta'limi bo'yicha "ochiq fakultetlar", uning bo'limlari (sirtqi, eksternat, masofadan o'qitish kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik, maxsus kurslar)ni tashkil etish muvofiq. Shuning uchun ta'lim muassasalari bir necha yo'nalishlarda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishlari zarur" deb hisoblaydi. Demak, mutaxassislarning fikricha kasb hunar kollejlardagi muammolarning sabablarini atroflicha o'rganish va targ'ibot va tashviqot (hamda axborot) ishlarining tashkil etilishidan boshlab, turli ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy omillardan ham qidirish kerakligini ko'rsatadi. Ko'zatishlarning ko'rsatishicha, kasb hunar kollejlarga qabul davrida o'quvchilarning nomutanosib taqsimlangan holda hujjat topshirishlari sabablaridan biri kasb-hunar ta'lim muassasasi bilan ota-onalar, hududdagi umumta'lim maktablari, mahalla-jamoatchilik va ishlab chiqarish (davlat va xususiy) korxonalarini jamoalari o'rtasida mustahkam, tizimli doimiy ravishdagi aloqalarning rejali ravishda o'rnatilmaganligidadir.

Tadqiqotchi Ro'ziyev E. "Kasb-hunar kollejlarda kichik mutaxassislar tayyorlashda o'qitishda ichki me'yorlashtirilgan tizimni emas, jahonning standartlariga mosligining muhimligini ta'kidlaydi. U o'quvchilarning noyob bo'lmagan mutaxassisliklarga hujjatlarni kam topshirilishining oldini olish muammosiga quyidagicha chora-tadbirlarni belgilashni taklif etadi: -mahalliy xududda joylashgan asosiy ishlab chiqarish korxonalarining istiqboliga tayanib, mutaxassislar tayyorlashni rejalashtirish; -tuman xalq ta'limi bo'limi qoshidagi tashxis markazlari (tibbiy-pedagogik, psixologik komissiya) faolligini oshirish;

-o'quvchilarni qobiliyati, dunyoqarashi, kasbiy qiziqishi, ehtiyojini hisobga olgan holda maktabdan bevosita kasb-hunar kollejlariga yo'llash; -ta'lim

muassasalarida mavjud ixtisosliklar bo'yicha to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish:»).

Muallifning ushbu xulosalari, asosan, o'quvchi-yoshlarning kasb hunar kollejlarga hujjat topshirishlarigacha bo'lgan davrda uchraydigan muammolarining yechimlarini topishga qaratilganligini ta'minlash lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflarini bitirgan o'quvchilarning asosiy qisimini (taxminan 80-90%) qamrab oladigan kasb hunar kollejlarda o'qish muddati 3 yilga mo'ljallangan bo'lib, ulardagi umumiy o'quv soatlari 4560 soatni tashkil etadi. Ushbu soatlarni shartli ravishda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq 3 yillik taxsil mobaynida fanlar bloklari kesimida quyidagicha taqsimlash mumkin:

Kasb-hunar kollejlarda o'quv soatlarining fanlar bloklari kesimida

/r	Fanlar	Soatlar miqdori	Umumiy yuklamaga nisbatan %
	Umumta'lim fanlari (20 nomda)	1940	42,5%
	Kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar 15-20 nomda)	1180	25,9%
	O'quv amaliyoti	600	13%
	Ishlab chiqarish amaliyoti	640	14,3%
	Diplom ishi	76	1,7%
	Kollej uslubiy kengashi qarori bilan kiritilgan soatlar	116	2,6%
	Jami:	4560	100%

Kasbiy va maxsus fanlarning turlari, miqdori kollejning ixtisoslik yo'nalishlariga qarab aniqlanadi hamda o'quv yurtidagi kasbiy ta'limning mazmuni, mohiyatni belgilaydi.

Professor A.R.Xudjaboyev Kasbiy ta'lim pedagogikasidagi dolzarb muammolar ustida batafsil to'xtalib, shunday yozadi: «Hozirgi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida biznes va huquq, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, ta'lim xizmatlari, psixologiya, ijtimoiy gumanitar va maxsus fan sohalari bo'yicha yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar va mutaxassislar tayyorlash va shu orqali kasbiy ta'lim mazmunini yanada rivojlantirish va takomillashtirish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi».

Muallif ushbu maqolada kasb-hunar ta'limining bir qancha ilmiy-nazariy, amaliy-tashkiliy, ma'muriy-metodik muammolariga jiddiy e'tibor berish zarurligini aytib, bajarilishi lozim bo'lgan aniq, vazifalarga to'xtalib shunday yozadi: "kasb-hunar ta'limini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini, kasbiy pedagogika metodologiyasini ishlab chiqish;

-akademik lisey va kasb-hunar kollejlardagi ta'lim - tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, milliy mustaqillik g'oyasi va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish va amaliy asoslash".

Mamlakatimizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining tashkiliy-ma'muriy, metodik muammolarini hal etish uchun oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi vazirligi qoshida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va ushbu markaz xuzurida esa o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur institut o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini va xududiy boshqaruv organlarining rahbar va mutaxassis xodimlarining kasbiy malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan birgalikda mazkur ta'lim sohasining ilmiy-nazariy, didaktik, pedagogik, psixologik, amaliy-metodik va metodologik muammolarini tadqiq qilish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayoniga ilg'or

ta'lim, axborot va ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish, o'quv jarayoniga muvofiqlashtirish, tajriba-sinovlardan o'tkazish, o'quv-metodik majmualar va davlat ta'lim standartlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish bilan ham shug'ullanmoqdalar. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi va instituti mutaxassis xodimlari mazkur yo'nalishdagi ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalariga o'quv-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, takomillashtirish o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy mahoratlarini uzviy ravishda takomillashtirib borish, xorijiy ilg'or ta'lim, axborot va ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish, o'quvchi-yoshlarning ma'naviy, kasbiy, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, o'quv, pedagogik, ishlab chiqarish amaliyotlarini belgilangan talablar asosida tashkil etishda yaqindan yordam ko'rsatmoqdalar.

Mamlakatimizda yoshlarning kasbiy ta'limi, kasbiy va ishlab chiqarish pedagogikasi, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida oliy va o'rta maxsus ma'lumotli, yuqori malakali va kichik mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, kasbiy malakalarini takomillashtirish borasida salmoqli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, kuzatishlar o'tkazilib tajribalar to'plangan.

Pedagog olimlar R.X.Jurayev, A.R.Xudjaboyev, N.Nishonaliyev, E.T.Choriyev, Sh.Kurbonov, O'.K.Tolipov, N.A.Muslimov, F.Rashidov, N.S.Shadaxmedov, Ya.Xaydarov, K.Mirsaidov, X.D.Yo'ldoshev, J.G.Yo'ldoshev, X.Ibragimov, U.Abdukuddusov, D.Razzoqov, S.Utanazarov, I.Mislibuyev, M.Jumayev, D.U.Ximmataliyev, D.Zoxidova, K.Ishmatov, G.Isayeva, A.Mamajunov kabi ko'plab tadqiqotchilar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining turli muammolarini tadqiq qildilar.

Pedagog olim R.X.Jurayev "Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning kasb-hunar tayyorgarligini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti" deb nomlangan monografiyasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarni o'zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitlariga tez moslashuvchanlik xususiyatlarini tadqiq qiladi.

X.F.Rashidov esa, o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti rahbari sifatida samarali faoliyat ko'rsatdi, mazkur sohaning yo'lga qo'yilishi, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Kanada, Italiya, Gullandiya va boshqa mamlakatlar tajribalarining yutuqlarini kasb hunar kollej ta'lim jarayoniga mamlakatimizda joriy qilinishi, ko'plab mutaxassislarning xorijiy davlatlarga borib, ularning tajribalarini o'rganishlarida tashabbuskorlik va tashkilotchilik qildi. U Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limida kichik mutaxassislarni tayyorlashning taraqqiyoti, rivojlantirilishi muammolarini tadqiq qildi.

Pedagog olimlar X.Ibragimov va Sh.Abdullayevalar o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quvchi-yoshlarning o'z-o'zini tarbiyalashlari, intilishlari, bulg'usi kichik mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarining shakllanishida muhim omillardan ekanligini yoritdilar.

Tadqiqotchi I.Misliboyev kasb-hunar o'quv yurtlarida o'quvchilarning ekologik ma'rifatini shakllantirish muammolarini tadqiq qilgan bo'lsa, A.Mamajonov o'рта maxsus o'quv yurtlarida bo'lajak ishchi - mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirish muammolarini tadqiq qildi.

D.A.Zoxidova "O'рта Osiyoda hunarmandlar tayyorlashning mavjud konseptual g'oyalari to'g'risida fikr yuritib, hunarlar risolalarini (asosiy qoidalari, tartiblari) o'rganadi va hozirgi o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ushbu g'oyalarni o'rgatish yo'llari to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqarish", V.A.Mazur ham O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni badiiy hunarlar turlariga o'qitishni yuritishda milliy hunarmandchilik va badiiy amaliy san'at uyg'unligini qarab chiqdi.

Pedagoglardan U.N.Nishonaliyev, A.R.Xudjaboyev, N.Sh.Shodiyev, U.K.Tolipov, N.A.Muslimov, N.S.Saidaxmedov, M.Quronov, M.Ochilov, A.Choriyev, K.Mirsaidov, Sh.K.Mardonov va boshqa olimlar oliy kasbiy ta'lim tizimida o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlashning va qayta tayyorlashning turli

muammolarini tadqiq qildilar va o'zlarining o'quv qo'llanmalari, monografiyalari hamda metodik ishlanmalarini ushbu sohaning ilmiy-nazariy, amaliy tomonlarini yoritishga bag'ishladilar.

Pedagog olimlar M.Quronov va O.Musurmonova qator asarlarida va tadqiqot ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari (7-8-9 sinf o'quvchilari) uchun "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsliklarini yaratishda ishtirok etdilar. M.Quronov esa ko'proq tadqiqot ishlarini maktabda o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish, milliy o'zlikni anglashni tarbiyalashga e'tibor berdilar.

Biz pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarda biror aniq soha, masalan, kichik mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy jihatdan tayyorlashda bo'lg'usi kichik mutaxassislarni ma'naviy jihatdan tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanish bo'yicha turli adabiy manbalarini tahlil qilar ekanmiz, bu sohadagi ishlar mutlaqo yetarli emas ekanligini guvohi bo'ldik.

Jamiyatning barcha sohalari, jumladan, uzluksiz ta'lim tizimining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi talabalarini boy ma'naviyat sarchashmalari, ilmiy qadriyatlar bilan muntazam tanishtirib borish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Prezidentimiz I.A. Karimov

"Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"(5) asarida shunday ta'kidlaydilar; «Bu borada asosiy ishlarimiz nimalardan iborat bo'lishi lozim?

Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insunlarga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz -shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yana boyitish», deb ta'kidlaganlar.

Yurtboshimizning ushbu so'zlari taraqqiyotning barcha sohalarida, jumladan, ta'lim-tarbiya tizimida ham ma'naviy qadriyatlardan samarali foydalanishga undaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida, ayniqsa, pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarda bo'lg'usi kichik pedagoglarni kasbiy jihatdan tayyorlashda tarixiy, ma'naviy, moddiy, madaniy, milliy ta'limiy, tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanish uchun hozirgi davrda jiddiy tabiiy ehtiyojlar paydu bo'lmoqda. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyutning barcha sohalari yangilanib borayotganidek, zamonaviy pedagogika, psixologiya, metodika fanlari ham mazmunan va shaklan yangilanishlar oldida turibdi.

Keyingi 100-150 yil mobaynida pedagogika faniga tayanib kelingan tarbiya tizimidagi g'oyalar hozirgi mustaqillik davrida samara bermay qo'ldi, undan oldin yaratilgan nazariya va ta'limotlar esa ko'proq diniy asoslarga tayangan bo'lib, ular hozirgi zamon ta'lim tizimida chuqur va har tomonlama o'rganilgan emas, ma'naviy qadriyatlarimizning ko'pgina (asosiy) qismi 100-150 yildan oldin yaratilganligi va to'liq o'rganilmaganligi sababli, kasb-hunar kollejlari o'quv-tarbiya jarayonida milliy, ma'naviy qadriyatlardan (diniy asoslarda yaratilgan bo'lsa ham) zamon ruxiyatiga moslashtirilgan holda fanlar tizimida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida, jumladan, pedagogika yo'nalishidagi kasb hunar kollejlarda kichik mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ilg'or ta'lim, axborot va ishlab chiqarish texnologiyalarining samarali namunalarini qo'llash ham muhim muammolardan hisoblanadi. Kasb hunar-kollejlaridagi o'rganiladigan barcha fanlarni, jumladan, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitishda ilg'or texnologiyalarga, xususan, kompyuter dasturlaridan foydalanishga o'tilgan emas. Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ishlab chiqarishning barcha sohalariga yangi texnikalar va ilg'or texnologiyalar kirib keldi. Masalan, gazlamalarga ishlov berish, tikuvchilik, to'quvchilikda Rossiya bilan bir qatorda Kanada, Yaponiya, Koreya, Germaniyadan keltirilgan tikuv mashinalari, qurilmalari va texnologiyalari amalda qo'llanilmoqda. Ammo, ko'pgina kasb hunar kollejlarga berilgan bunday mashinalar ba'zi xollarda mutaxassislar yetishmasligi

sababli yetarlicha samara beradigan darajada ishlatilmasdan, ko'proq ko'rgazmali qurol sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi kurslarida salmoqdi qisimni tashkil etadigan materialshunoslik, gazlamalarga ishlov berish bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni 5-7 sinflarda qoniqarli ravishda yo'lga qo'yish uchun, keyingi 25-30 yil mobaynida birorta ham tikuv mashinalari, qurilmalari va boshqa jihozlar olingan emas. Mustaqillik yillarida maktablarga berilayotgan bunday mashinalardan foydalanishda yetarli darajada ko'nikma va malakalarga ega bolmagan o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu esa, umumiy o'rta maktablaridagi, mehnat ta'limi moddiy-texnika ta'minoti bazasini yaratish, unda faoliyat ko'rsatiladigan pedagog-kadrlar tayyorlaydigan oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi o'quv-metodik, moddiy-texnika ta'minoti izchilligini saqdashda turlicha darajadagi uzilishlar, muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida pedagog - kadrlarni tayyorlashda avvalo ularning kasbiy-amaliy tayyorgarligiga, so'ngra ruhiy, axloqiy, siyosiy-mafkuraviy, ma'naviy-madaniy dunyoqarashini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Bizning fikrimizcha, pedagog-o'qituvchilarni tayyorlashda esa, kichik mutaxassislarni tayyorlashdan farqli ravishda, bu holning teskarisi, ya'ni, dastlab nazariy, ilmiy, siyosiy dunyoqarash shakllantirilishiga e'tibor qaratilishi, so'ngra amaliy-metodik ko'nikmalar rivojlantirilsa, maqsadga muvofiqdir, Chunki, o'qituvchi-pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlar, axloqi, dunyoqarashi, madaniyati, ma'naviyati (qanaqa o'quv yurtini tanlashidan katiy nazar) nafaqat, o'quvchi-yoshlar uchun namunaviy siymo bo'lib qolmasdan, balkim jamiyatning barcha qatlamlariga ham o'rnak bo'lishi tabiiy holdir.

Bolalarni maktabga berishda har qanday ota-ona (ishchi, xizmatchi, jamoatchi) avvalo, bolani kimlar qo'lga (sinfiga, jamoaga, o'qituvchiga) topshirayotganligi bilan qiziqadi. Ana shunda o'qituvchining obro'si (yoki jamoada tutgan o'rni) hisobga olinadi. Bunday holda albatta shaxsiy va kasbiy

fazilatlari yuqori darajada shakllangan, dunyoqarashi keng, obro'li, mehnatkash o'qituvchiga ota-onalar ko'proq murojaat qiladilar.

O'qituvchi-pedagoglarning oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtini tugallash ishlarida ijodiy (diplom bitiruv) ishini hamda bitiruv imtixonlarini «yaxshi» va «a'lo» baholarga tugallagan yosh mutaxassislar o'ziga xos ro'xiyat bilan ta'lim muassasalariga ishga boradilar. Hozirgi vaqtda ko'pgina yoshlar pedagogika yo'nalishidagi o'quv yurtlarini (ayniqsa, bunday hol oliy o'quv yurtlarini bitiruvchilarida ko'proq uchraydi) bitiradilar-u ammo, ishga joylashishga kelganda, ta'lim tizimidan boshqa (balkim serdarumadruk) muassasalarga ishga joylashishga harakat qiladilar. Agar ular o'sha nopedagogik yo'nalishdagi ish o'rniga joylashsalar, pedagogik ma'lumotli kadr uchun yana bir ish o'rnini mazkur tizimda "yo'qoladi", shuning uchun, bitiruvchilarning ishga joylashishlari, ma'lumotlari bilan abituriyentlarning tanlagan o'quv yurtiga, mazkur mutaxassislikka hujjat topshirishlari ma'lumotlari bilan taqqoslanishi va faktlar umumlashtirilishi, zaruriy xulosalar chiqarilishi hamda kerakli chora-tadbirlar belgilanishi lozim.

Hozirgi davrda yosh mutaxassislarni ish joylariga qabul qilingach, ma'lum muddatgacha, ya'ni, 3 yilgacha stajyur(shogird) o'qituvchi sifatida belgilanishlari murabbiy belgilash hamda mazkur murabbiylarning faoliyatlari haqidagi hisobotlarini fan metodik birlashmalarida (yoki pedagogik kengashlarda) muhokama qilib borishlari ham muammoligicha qolib ketmoqda.Ularning ma'lum yo'nalishda mustaqil faoliyatini tashkil etib borishlari o'z kasbiy mahoratini maqsadli ravishda takomillashtirib borishlari, tajribali pedagoglarning darslarini tizimli ravishda kuzatib borish, taxlilda qatnashishlari, turli xil o'quv-tarbiyaviy va jamoatchilik topshiriqdorini bajarishlariga ham ham e'tibor berilmoqda.

O'rta maxsus va oliy ma'lumotli pedagog mutaxassislar, nomutaxassislar yoki nopedagol uchun pedagogik stajining miqdorini (5-10-15-20-25 yil va undan ziyod)qat'iy hisobga olgan holda ustama va tofovutlar hamda rag'batlantirishlar berilishining mezonlari ham aniq ishlab chiqilishi, jamoatchilik

orasida muhokama qilinganidan so'ngina amaliyotga joriy etilishi, xaqqoniy taqsimlanishi ham jiddiy muammolardan bo'lib qolmoqda. O'qituvchi-pedagoglarning ish faoliyatida ularning kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlaridan, masalan, maxsus sirtki fakultetlarda o'qib taxsil olishlari, attestasiya natijalari, malaka oshirish, (pedagogik yo'nalishlar bo'yicha) qayta tayyorlashdan o'tishlari turli musabaqalar, ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashishlarini ham hisobga oladigan sinov baholash mezonlarining ishlab chiqilishi va amalga joriy qilinishi lozim.

O'qituvchi- pedagoglarning faoliyatida ilmiy-ijodiy ishlarini ma'naviy, ma'rifiy, madaniy tadbirlarni o'tkazishlarida qatnashishlari yanada ko'proq erishish lozim, chunki, bu hol bir tomondan ularning kasbiy mahoratlarining takomillashuviga olib kelsa, ikkinchi tomondan ularning ma'naviy dunyo qarashining rivojlanishiga olib keladi, uchinchi esa, ma'naviy boyliklarning, milliy qadriyatlarning yanada ko'payishiga olib keladi. Bu haqda mamlakat Prezidenta I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida shunday deb yozadi: "o'qituvchilar va shifukorlar, madaniy muassasalardagi va boshqa sohalardagi ko'plab mutaxassislar-chinakam ziyolilardir. Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerar. Chunki, ma'naviy boyliklarni aynan shular yaratadi. Ularga g'amxo'rlik qilish, samarali faoliyat uchun barcha zarur moddiy, ma'naviy sharoitlarni yaratib berish davlat hokimiyati va xo'jalik tashkiloti rahbarlarining burchi va mas'uliyatli vazifasidir".

Prezidentning ushbu so'zlari faqat milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashga emas, ulani ko'paytirish, yangilarini yaratish, kelgusi avlodlarga yetkazish choralarini ko'rish, avvalo ziyolilarni, qolaversa, jamiyatdagi barcha kishilarning burchi deb hisoblanishi lozim ekanligi kelib chiqadi. O'qituvchi-pedagoglar, ziyolilarning oldingi saflarida turganligi sababli, ma'naviy, milliy qadriyatlarni saqlash, asrab-avaylash, ko'paytirish va himoya qilish vazifasi, avvalo, ularning zimmasiga yuklanadigan kasbiy mas'uliyatlardan biri hisoblanadi.

1.3. Kasb-hunar kollejlarda estetik tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari (Estetika fanining didaktik imkoniyatlari)

O'zbekiston respublikasida kasb-hunar kollejlarda kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha o'ziga xos holda tajriba to'plangan bo'lib, ushbu o'quv muassasalari taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlari bo'yicha ochilgan, 3 yillik muddatda 4560 soatlik hajmda o'quvchilarga davlat ta'lim standartlari asosida kasbiy ta'lim berilmoqda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari (kelgusida-O'TKHTDTS) O'zbekiston respublikasida Vazirlar mahkamasi tomonidan 2000 yil 16-oktyabrdagi mazkur nomdagi 400-sonli qaror orqali tasdiqlandi va amaliyotga joriy etilmoqda va quyidagilarni ifodalaydi: "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (kelgusida O'MKHT) tarmoq standarti –malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi va kasb-hunar bo'yicha ta'lim majmuining zarur va yetarli hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi me'yoriy hujjatdir" (7.3?) (Ushbu DTSlar O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 3-avgust 2001 yil 7/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan va amalga tadbiiq etish uchun tavsiya etilgan).

Standart so'zi – inglizcha "standart"-me'yori, o'lchov, namuna ma'nolarini anglatib, me'yoriy hujjat sifatida qoidalar, tartiblar majmuasini bildiradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi DTSlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- O'MKHTga va uning pirovrd natijalariga ta'lim oluvchilarning bilim va kasb malakasi darajasining vaqti-vaqti bilan baholash tartibini, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishni belgilovchi negizni yaratish;

- Xalqning boy aql zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- O'MKHT o'quv-tarbiya jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- Kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integrasiyasini ta'minlash [7,3] deb belgilangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi DTS vazifalarining 3-qismida "Xalq ta'limining boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish" deb [7,4] ko'rsatilgan.

Hozirgi vaqtda aynan shu qismda ko'rsatilgan tarbiyaviy vazifalar to'liq bajarish barcha KHKlarda ham ijobiy amalga oshirilayapti deb bo'lmaydi. Masalan, amaliy san'at ham xalqning tarixiy, boy meroslaridan hisoblansa-da, hanuzgacha ushbu boy poydevori teran bebeho meroslarning barchasidan ham yoshlarni tarbiyalashda samarali foydalanilmoqda deb aytib bo'lmaydi.

San'at - badiiy ijodiyot uning ayrim sohalari, masalan, amaliy san'at – amaliy tatbiqiy sohalarning o'ziga xos ish uslublari, tizimi, sohalarning bo'yicha yuksak mahorat ustalik belgilari ya'ni, yuqori darajali bilim, ko'nikma va malakalarning namoyon bo'lishi, amalga joriy etilishi (bizningcha).

Demak, amaliy san'at – turli sohalar bo'yicha kishilarning, kasb-hunar egalarining bilim, ko'nikma va malakalarining amalga joriy etilishi natijasida turli amaliy san'at asarlarining, buyumlarining tayyorlanishidir.


O'zbek xalqi ham qadimiy xalqlardan bo'lganligi sababli, ularning amaliy san'ati ham turli-tuman bo'lib, uzoq o'tmish tarixiga egadir. Ibtidoiy odam paydo bo'lganidan boshlab, qulay yashash sharoiti yaratish uchun suyak, tosh va yog'och

qurollardan foydalanaganlar. Ba'zi hollarda ana shu suyak, toshlardan keyinchalik, jez (bronza) so'ngra boshqa metallardan bezak buyumlar tayyorlangan. Qadimga ayollarda suyak xalqalar, chig'anoqlar va boshqa bezaklar tayyorlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Keyinchalik amaliy san'at tarmoqlari ham rivojlanib, turli tuman sohalarga ajralib borgan.

1-chizmada biz amaliy san'atning keng tarqalgan turlarini sanab o'tishga harakat qildik.

1-chizma

Amaliy san'at turlari



O'quvchilarning amaliy san'at turlari bo'yicha kasb-hunarlar bilim, ko'nikma va malakalari

Amaliy san'atning ushbu ushbu 1-chizmada keltirilgan turlari asrlar mobaynida shakllangan, xalq orasida rivojlangan va hozirda ham rivojlanmoqda.

Hozirda qadim-qadimlardan Markaziy Osiyoda ilk madaniyat maskanlari Mustye davriga oid (eramizdan avvalgi 40 ming yilcha ilgari) keyinchalik ilk va so'nggi paleolit, mezolit, eneolit, neolit davrlaridan ham moddiy qoldiqlar saqlanib qolgan. Masalan, Mustye davriga oid qadimiy odamlar yashagan Teshiktosh (Surxondaryo), Obi-Rahmat, Bo'zsuv (Toshkent), Kalacha, So'x va Uzunko'l (Farg'ona), Zamonbobo, Uchtut (Buxoro), kaltaminor (Xorazm), Jonbosqal'a, Suvyorgan (Qoraqalpog'iston), Sazog'on, Tim, Omonqo'ton (Samarqand) va boshqa qadimgi odamlar yashagan joylardan madaniy izlar saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyoning milodgacha va keyingi madaniyati tarixini shartli ravishda quyidagi davrlarga mansub deyish mumkin:

1. Qadimgi so'g'd (miloddan avvalgi VI-IV asrlar);
 2. So'g'd-ellinistik (miloddan avvalgi III-I asrlar);
 3. So'g'd-kangyuy (kangxa) (eramizdan avvalgi I-IV asrlar)
- (B.Muranov, S.Muranov. Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at tarixi. Ziyokor №7 (167) Samarqand. 2011y. Iyul. 26-30b.).

Yaratilgan buyumlarda o'sha davrdagi turmush tarzi aks ettirilgan. 1-davrga taalluqli topilma 2 ta gammadan (haykalcha) birida yoy otuchi jangchi, ikkinchisida bo'yniga o'q osilgan serka hamda boshida uchburchak shakli bor buqa tasvirlangan. 2-davrga taalluqli bo'lgan tanga-chaqa, terrakotadan yasalgan buyum; 3-davrga mos bo'lgan don va suv saqlash uchun sopol xumdonlar, to'qish dastgohi zaruriy qismlari, terrakota-ma'budachalari, haykalchalar, uylar qoldiqlari, ayollar zeb-ziynatlari, kosalar, qadahlar, suvdondlar va boshqalar ham qadimgi so'g'dlarda amaliy san'at turlarining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Eftaliy-turk koroplastikasi, sopol buyumlar, kosachalar, likopchalar, ilmoqsimon dastali cho'michlar, shaffof lak chizilgan chumakli tor ko'zachalar, xumchalar, temirchilik o'choqlari, sopol vannachalar, quyish qoliplari, g'ishtlar

terish xumdonlari ham amaliy san'at buyumlarining ko'plab tayyorlanganligidan dalolat beradi. Qabilalarning kengayib elatlarga va xalqlarga, xalqlarning kichik davlatlarga, kichik davlatlarning katta imperiyalarga aylanishga intilishlari o'zaro urushlarning kelib chiqishiga va avj olishiga sabab bo'ldi. O'zaro urushlar esa hujum va himoya qilish, jang qurollari, moslamalari, qurilmalari, harbiy, fuqarolik kiyimlari, liboslarining ko'plab tayyorlanishiga olib keldi. Albatta, bu fuqarolik va harbiy liboslar, jang qurollari xalq ustalari tomonidan yuqori mahorat bilan tayyorlanar edi. O'sha davrda va undan keyin ham me'morchilik san'ati ham gurkirab rivojlandi (masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva obidalari). O'sha davrlarda yaratilgan, hozirda mamlakatimizda saqlangan, ta'mirlangan, tuzatilayotgan tarixiy obidalar, fadamjolar, ziyoratgohlar, me'moriy yodgorliklar 4000 dan oshadi.

Demak, tarixiy davrlarda yaratilgan ana shu yurtimizda saqlanib kelayotgan amaliy sana't asarlarining tarixini, yaratilishini o'rganish va kelajak avlodlarga o'rgatish, KHKlarda ushbu san'at turlari sohalari bo'yicha o'quvchilarda zaruriy BKMLarni shakllantirish ham hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, mohiyati, tuzilishi, turlari va o'quv soatlari miqdori UO'TDTS, o'quv reja va dasturlari, o'quv qo'llanmalari, metodik ishlanmalar va darsliklar, elektron ishlanmalar orqali ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi akademik leseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyatini uyg'unlashtirib turadi.

Biz tadqiqotimiz davomida KHKlarining bir qancha o'quv rejalarini, dasturlarini o'rganib, tahlil qilib, o'quvchilarga estetik tarbiya berishning imkoniyatlarini yoritishga harakat qildik. Masalan, ixtiyoriy olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining 2005 yil 30 avgustda tasdiqlangan 3140010 – “Boshlang'ich sinflarda estetik tarbiya tashkilotchisi” boshlang'ich sinflarda mehnat tarbiyasi, kuni uzaytirilgan

guruhlarda tarbiyachi kabi kichik mutaxassislarni tayyorlashga moslashtirilgan o'quv rejasini tahlil qilinganda quyidagi ahvol ma'lum bo'ldi.

Rejada umumiy o'quv soatlari 4560 soat qilib belgilangan bo'lib, shundan umumta'lim fanlari bilan blokiga jami 23 ta nomdagi fanga 19511 soat, 5 ta nomdagi fanlardan iborat bo'lgan umumkasbiy fanlar blokiga 370 soat, jami 17 ta fandan iborat bo'lgan maxsus fanlar blokiga 1355 soat, turli xil sinovlar, attestasiya, tanlov fanlari (124 s), pedagogik o'quv amaliyotga 318 soat va boshqa soatlarga 442 soat ajratilgan bo'lib o'qish muddati 3 yilni tashil etadi. Shuningdek, estetika, nafosat, amaliy san'at yo'nalishida to'g'ridan-to'g'ri BKmlar beradigan fanlarga quyidagicha vaqt ajratilgan: umumta'lim fanlar blokidan – estetika o'quv kursiga 48 (ba'zilarida 57) soat, maxsus fanlar blokidan – o'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlarga 176 soat (bu mashg'ulotlarni amaliy san'at turlari bo'yicha ham olib borish mumkin), qalam tasvir – 111 soat, amaliy san'at turlari – 94 soat, tasviriy va amaliy san'at metodikasi – 75 soat, san'at tarixi – 45 soat, tanlov fanlariga – 144 soat o'quv soatlari ajratilgan. Demak, o'quv rejalarining egiluvchanligi va moslashuvchanligi tufayli san'at, nafosat yo'nalishidagi fanlarga jami – 784 soat vaqt ajratilgan. Ushbu rejada o'quv va diplom oldi amaliyotini amaliy san'at uyushmalariga, kichik va davlat korxonalariga ham shartnoma asosida uyushtirish mumkin. Mazkur o'quv rejadagi “Estetika asoslari” (48-57 soat) o'quv fanining didaktik imkoniyatlarini ko'rib chiqaylik (2-chizma):

“Estetika asoslari” kasb-hunar kollejlari o'quv qo'llanmasi Ye.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyx'o'jayevalar hammuallifligida 2010 yilda qayta nashr qilingan, “Cho'lpon” nashriyotidan chiqarilgan va 208 betni tashkil etadi. 7 bobni va 70 ga yaqin mavzularni qamrab olgan.

2-chizma

Ushbu 2-chizmada ko'rsatilganidek, I-bob "Estetika mavzui" deb nomlanib, ushbu fanning va vazifalari. Boshqa fanlar bilan aloqadorligi holatlari ko'rsatilgan. Qo'llanmaning "Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari" deb nomlangan II-bobida 12 ta mavzu qamrab olingan. Jumladan, "O'rta Osiyoda estetik tafakkur tarqqiyoti" miloddan avvalgi VIII – VII asrlarda Xorazm tuprog'ida zardusht tomonidan yaratilgan "Avesto" (hayot falsafasi)dan boshlab, turli xil toshbosma, qo'lyozma, qog'oz bosma asarlarda xalqning asotirlari, ertak va hikoyalari, rivoyatlari, maqollari, maqolotlari, dostonlari va og'zaki va yozma ijodida, san'atida keltirilgan lavhalar orqali Sharqda ushbu tarbiyaning tarixiga murojaat qilinadi. Shuningdek, islom dinining muqaddas kitoblaridan hisoblangan "Qur'oni-Karim" va Hadisu Shariflardagi estetik g'oyalarga "Islom madaniyatida estetik qarashlar" nomli mavzuda to'xtalib o'tilgan. Asarda Markaziy va O'rta Osiyoning Sharq renesansi (uyg'onish davri)ning buyuk mutafakkirlari hisoblangan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Al Moturudiy, Al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Imom al Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahrori Valiy. Ahmad Yugnakiy, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Bolosog'uniy, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Abulqosim Firdavsiy, Xisrav Dehlaviy, Axmat at-Termiziy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabilarning asarlaridagi estetik nafosat g'oyalarining ulug'lanishiga ham e'tibor berib o'tilgan. Masalan, "Avesto" (hayot falsafasi)dagi bosh shior "ezgu fikr, ezgu kamol, ezgu amal" sifatida qo'rsatilsa, "Qur'oni Karim"da esa oyatlar, suralar, rivoyatlar tarzida shariat qoidolari, Hadisu Shariflarda har bir soha "Kitob"lar sifatida ko'rsatilib o'tiladi. Buyuk mutafakkirlardan Bahouddin Naqshbandiy hazratlarining "Dil-ba yor-u, dast-ba kor" ya'ni, "Ko'ngling ollohda bo'lsin-u, qo'ling ishda bo'lsin" kabi aqidalari, Sharq allomalarining deyarli barcha asrslarida yoshlarni tarbiyalash, ilm-hunarga, bilimga qiziqishlarini rivojlantirib borishni targ'ib etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'llanmaning II-bobi "Estetik ong va estetik faoliyat" deb ataladi va bu bo'limda estetik ong, his-tuyg'u, did, baho, ideal-sezgi, tasavvur va tafakkur, qarashlar, nazariyalar, faoliyatlar va dizayn kabi estetik yo'nalishlarga ta'rif va tavsiflar berilgan.

IV-bobda asosiy estetik kategoriyalar (tushunchalar) sifatida go'zallik, fojiviylik, kulgililik, ulug'vorlik kabi toifalarga e'tibor berilgan.

V-bobda "Mustaqillik ma'naviyat va estetik madaniyat" deb nomlanadi va bu yerda "Milliy istiqlol ma'naviyati" bosh mavzu, ma'naviyat va estetik meros, din, estetik madaniyat rivojlanishining omili kabi yo'nalishlar tahlil qilingan.

Mustaqillik ma'naviyati va o'quvchi-yoshlarda milliy ma'naviyatni shakllantirish zarurligi to'g'risida Prezident I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday yozadilar: "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularni bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odati va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi". Qo'llanmaning VI-bobi "Amaliy estetika" deb atalib, 20 dan ziyod mavzularni qamrab olgan. Jumladan, ushbu bobda, san'at estetikasi, san'at turlari, me'morchilik, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, naqqoshlik san'ati, xattotlik san'ati, notiqlik, ganchkorlik, musiqa, maqom, qo'shiqchilik, raqs, badiiy adabiyot, aralash san'at turlari, teatr, kino va televideniyaning ham o'quvchi-yoshlarda estetik tarbiya xislat va fazilatlarini shakllantirishdagi o'rni belgilab berilgan.

San'at – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus qismidir. San'at turlari – san'at mavjudligining tarixan tarkib topgan barqaror shaklidir. Har

aqnday san'atning mazmuni – voqyelikdir. Xuddi voqyelikning o'ziday tuganmasdir. U voqyelik kibi rang-barang va turli-tumandir.

San'at turlari vaqt va makonda bo'lishiga qarab quyidagicha tasniflanadi:

1. Makon san'atiga – me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, grafika kiradi;
2. Vaqt san'atiga – musiqa, badiiy adabiyot kiradi;
3. Vaqt-makon (qorishiq aralash) san'atiga – kino, teatr va qolgan barcha san'at turlari kiradi.

Masalan, me'morchilikda eramizning boshlarida Rim me'mori Vitruviy – har qanday imorat – foydali, mustahkam, go'zal bo'lishi kerak degan va go'zallik orqali edstetik g'oyalarni ilgari surganlar. Albatta, ushbu g'oyalarga hanuzgacha me'morchilikda rioya qilinmoqda. Masalan, haykaltaroshlik – tasvirlanayotgan narsani uch o'lchamda ifoda qilish deyiladi. Bunda asosan, insonlar, qisman hayvonlar ham ifodalandi. Naqsh – arabcha gul, tasvir degan ma'noni anglatib, naqqosh gul, tasvirlarni chizuvchi, tasvirlovchi degan ma'noni anglatadi.

Xuddi yuqoridagidek, amaliy va boshqa san'at turlaridan bir qanchasini o'quvchilarning turli xil BKMLarni o'zlashtirishlarida turli xil imkoniyatlarga ega ekanligi ma'lum holda turadi.

Qo'llanmaning “Nafosat tarbiyasi asoslari” deb nomlangan VII-bobida 13 ta mavzu jamlangan bo'lib, estetik madaniyat-nafosat tarbiyasining asosi sifatidaligi, estetik madaniyat, estetik madaniyatning samarali shakllari va usullari, yigit va qizlar estetik tarbiyasi, tabiat muhofazasi va ekologik tarbiyalarning o'zaro aloqasi, sport estetikasi va boshqa qator omillar qarab chiqilgan.

Umuman olganda amaliy san'atning turlari va yo'nalishlarining estetik tarbiyadagi o'rnini belgilashda mazkur fanning didaktik imkoniyatlarini ko'rib chiqib quyidagi fikr-mulohazalarni bildirish mumkin:

1. Amaliy va boshqa san'at turlarining estetik, nafosat va boshqa tarbiyalar turlarini amalga oshirishda turli BKMLarni, xislat va fazilatlarni

shakllantirishda tarbiyaviy imkoniyatlari keng bo'lib, faqat ularni o'rgatish va o'qitishda ma'lum tizimga solinishi lozim bo'ladi;

2. Amaliy san'at turlaridan har birini o'rganishda ham kishilarning ichki dunyosi, tafakkuri, turli xil san'at asarlariga, ularning qismlariga (bezaklariga) ko'char ekan, ular kishilik ruhiyatiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi.

3. Kasb-hunar kollejlarda o'qitilayotgan, umumta'lim fanlari guruhiga kiradigan "Estetika asoslari" fanining o'quvchilarda nazariy tushunchalarni, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda didaktik imkoniyatlari juda katta.

4. Kasb-hunar kollejlarda estetik BKMLarni, nafis his-tuyg'ularni, xislat va fazilatlarni shakllantirgan bo'lg'usi kichik mutaxassislar o'z unumli mehnat faoliyatini samarali tashkil etadi, yaroqsizlikka kam yo'l qo'yadi, texnikaviy va ishlab chiqarish dizaynga rioya qiladi, ya'ni, ular ishlab chiqargan mahsulotlar chiroyli va pishiq bo'lishi tamoyiliga rioya qiladilar.

II-BoB. Kasb-hunar kollejlarda amaliy san'at vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning samarali shakllari va vositalari.

2.1 O'quv mashg'ulotlari estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida.

Uzluksiz ta'lim muassasalarida, jumladan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, shuningdek, kasb-hunar kollejlarda ham asosiy ta'lim shakli sifatida o'quv mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi.

Hozirgi vaqtda KHKlarda o'quv mashg'ulotlari

- 1) nazariy bilimlarni berish,
- 2) amaliy ko'nikmalarni shakllantirish,
- 3) ishlab chiqarish malakalarini takomillashtirish,
- 4) laboratoriya,
- 5) seminar,

6) muammoli vaziyatlarni takrorlash va mustahkamlash kabi turlarga bo'lingan holda, an'anaviy va noan'anaviy shakllarda davom ettirilmoqda.

An'anaviy dars mashg'ulotlari ma'ruza, so'zlab yoki hikoya qilib berish, butun sinfga yagona topshiriqlar berish orqali o'qituvchining ko'p harakatchanligi davomida amalga oshiriladi.

Noan'anaviy dars mashg'ulotlarida esa pedagogik va axborot texnologiyalaridan ko'plab foydalanish, innovatsion yoki interfaol uslublarni ko'plab qo'llash, guruhlash, muommoli topshiriqlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishdagi faolliklarini bir necha marta oshirish mo'ljallaniladi.

Innovatsion uslublarni qo'llash "Novotsia"- inglizcha yangiliklarni kiritish degan ma'noni anglatadi va darsdagi o'qitish, o'rganish va o'zlashtirishni aniqlash jarayonlarini mutlaqo yangicha uslublarda, shakllarda va mazmunda yangilab borish hisoblanadi. Interfaol (interaktiv) inglizcha "inter"-o'zaro o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda ta'lim mazmunini o'zlashtirishda birgalikda faol harakatlanishiga aytiladi.

An'anaviy darslarda o'qituvchilarning faolligi, harakatlanishi ko'proq sezilsa, noan'anaviy darslarda esa o'quvchilarning mustaqil o'zaro harakatlarida keskin faollashish kuzatiladi, Chunki ilgari "hamma baravar o'qitilishi kerak" degan shior ostida ishlagan bo'lsa, hozirgi davrda esa "talim mazmunini o'zlashtirish-asosan, ta'lim oluvchilarga ko'proq kerak degan shior ostida ish olib borilmoqda. Umuman olganda, hozirgi davrdagi darslarda asosan BKM lar (bilish, ko'nikmalar va malakalar) tayanch atamalar vositasida, muommoli topshiriqlar yordamida o'rgatilsa, ilgarigi darslarda esa ko'proq o'qituvchi ma'ruzasi orqali shakllantirilar edi. Quyida an'anaviy va noananviy uslublardan foydalanilgan holda hozirgi davrda tashkil etilayotgan dars mashg'ulotlarini umumiy tuzilishini quyidagicha keltirish mumkin:

1. Sana,
2. Guruh,
3. Fanning nomi,
4. O'qituvchining F.I.SH, monitoringi (to'g'ilgan yili, oy, kun, qachon, qaysi o'quv yurtini tugallagan, mutaxsisligi, pedagogik, umumiy va xususiy staji, toifasi),
5. Dars mavzusining o'quv ishchi tayanch rejasiga mosligi (rejada nechanchi mavzuligi),
6. Mavzuning shakllantirilishini tanlanishi, qisqa mazmunli holda qo'llanilishi;
7. Darsning malumoti;
 - 7.1 O'qituvchining shaxsiy va kasbiy hujjatlari;
 - 7.2 O'quv-metodik talimoti (DTC, o'quv rejasi, dasturi, o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, tarqatmali va ko'rgazmali didaktik vositalar va boshqalar;
 - 7.3 moddiy-texnikaviy ta'minot: jihozlar, ustahonalar, laboratoriyalar, maxsus binolar, asbob uskunalar, qurilmalar, moslamalar, materiallar, stanoklar va dastgohlar, elektrik va avtomatik kompyuter jihozlari va b.
 - 7.4 Xavfsizlik qoidalari (12-13 xilga rioya qilinishing amalga oshirilishi;

8. Dars maqsadlarining belgilanishi: (ta'limiy, tarbiyaviy, amaliy, rivojlantiruvchi, ijodiy va boshqalar)

9. Dars tuzilishining saqlanishi: (umumiy qism, tashkiliy qism, asosiy va yakuniy qism) hisobga olish.

10. Yangi mavzuni o'tishda bilish faoliyatining amalga oshirilishi;

10.1 Tayanch atamalarining tanlanishi;

10.2 Muommoli savollar va topshiriqlarning, vaziyatlarning yaratilishi;

10.3 Guruhlarga ajratilishi, ularga nom qo'yilishi, sardorlar bellashishi;

10.4 Har bir guruhga mos muommoli topshiriqlarning tarqatilishi va vaqt belgilanishi.

11. Darsda an'anaviylik va noan'anaviylikning yo'lga qo'yilishi YaPT-yangi pedagogik texnologiyalar, IPT-ilg'or pedagogik tajribalar, YaAT-yangi axborot texnologiyalar, AKT-axborot kommunikasiya (tarmoq) texnologiyalari, IChT-ishlab chiqarish texnologiyalaridan unumli foydalanish.

11.1 Darsning texnologik xaritalarini ishlab chiqish va amalda joriy etish.

12. Darsda ta'lim oluvchilar (o'quvchilar) faolligi, mustaqilligi, erkinligiga erishish.

13. Talim beruvchilarning kasbiy mahoratining(og'zaki, yozma, chizmakashlik, nutqiy, amaliy ishlay olish, notiqlik, aktiyorlik, rejissiyorlik mahorating) namoyon bo'lishi;

14. Muommoli, dasturli, o'yinli ta'lim uslublari, unsurlari: rolli va ishchanlik o'yinlari, savol-javob, munozara, bahs, musobaqa, seminar aqliy hujum, aqliy sayohat va boshqalarning qo'llanilishi.

15. Dars turlari, uslublari, shakllarining ta'lim yo'nalishiga mos kelishini ta'minlash;

16. o'quvchilarning o'z-o'zini kuzatishi va nazorat qilishlarining tashkil etilishi va borishi.

17. Ta'lim oluvchilar tomonidan ijodiy, yozma va amaliy ishlarni muhokama qilish va qiyosiy tahlillarning bajarilishi.

18. Darsda qismlarning tashkil etilishiga vaqt taqsimotining to'g'ri yo'lga qo'yilishi erishish.

19. Darslarda ustozlik, shogirdlik odobiga, ish boshqaruvchilik faoliyatining yo'lga qo'yilishi.

20. Darslarda psixologik munosabatlarning (o'quvchi-o'quvchi, o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-o'qituvchi, o'g'il va qiz bolalarning o'rtasidagi) namoyon bo'lishi.

21. o'qituvchi va o'quvchilarning nutq madaniyati (sofligi, to'g'riligi diksiya jarangdorlikning saqlanishi, maroqligi) qoidalariga rioya qilishlari;

22. Pedagogik–tarbiyaviy maqsadlardan ekalogik, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy, aqliy, axloqiy, jismoniy, jinsiy, huquqiy, nafosat, mehnat, kasb-hunar, siyosiy, tibbiy havfsizlik va boshqalarning) amalga oshirilishiga erishish;

23. Yozuv taxtasi va boshqa ko'rgazmali, tarqatmali vositalardan samarali foydalanish.

24. O'quvchilar va o'qituvchilar, trinerlar, koordinatorlar va boshqalarning belgilangan talablarga muvofiq kiyinishlari, muomalalari madaniyatsizlik, odoblilikning, milliylikning saqlanishi, gavdaning to'g'ri tutilishi muomala madaniyatining rioya qilinishi;

25. Darslarda ilmiylikning saqlanishi, formulalar, raqamlar, abbiatura(qisqartma oitlar) grafiklar, jadvallar sharhlanishi, lug'aviy ma'nolarining yoritilishi;

26. Pedagogik nazorat (oraliq, joriy, yakuniy nazorat va atestasiyaning qoidalari.

27. O'qitish, o'rganish va o'zlashtirish darajasini aniqlashning zamonaviy usullari, samarali shakl uslublaridan foydalanish, har uchala maqsadda baravaricha qo'llanishi;

28. Pedagogik tahlil, tashxis, tekshiruvchi va tekshiruvchi nazorati odobiga rioya qilinishi, naslahatlarning berilishi.

29. Tekshiruvchining monarhiya , totalitar uslublaridan voz kechib, demokratik uslublardan foydalanishlari;

30. Topshiriqlarning bajarilishida osondan-qiyinga, soddadan murakkabga, tamoilarning bajarilishlariga erishish;

31. Darslarda tabaqalashtirilgan, yo'naltirilgan ta'limga erishish;

32. Mustahkamlash, takrorlash qismida nazorat savollarining barchaga berilishi;

33. Guruhlarning olgan natijalarining qatnashchilarning natijalari bilan uyg'unlashtirilishiga erisxilishi

34. Yakuniy qismning bajarilishi, baholarning e'lon qilinishi, bajarilgan amaliy ijodiy topshiriqlarning o'tgan darsdagi uyga vazifalarning tekshirilishi, yangilarning berib borilishi, sinfning yig'ishtirilishi va boshqalarning bajarilishiga erishish;

Demak, yo'qorida keltirib o'tilgan tajribalardan ko'riladiki, an'anaviy va noan'anaviy uslublaridan foydalanib o'tkazilgan darslardan ancha samarali natijalarga erishadi. Quyida umumtalim fanlari blokiga kiruvchi "Estetika asoslari" o'quv kursidan VI-bobida "amaliy estetika" bo'limiga qarashli "amaliy bezak san'ati" nomli mavzuning o'tilishini an'anaviy va noan'anaviy uslublarda birgalashtirilgan holda interfaol shaklida tashkil etilishini ko'rib o'taylik: o'quv yurti: Samarqand shahridagi "Qurilish va xalq hunarmandchiligi" kolleji; Dars mavzusi: "Amaliy san'at asoslari"; Guruhlar: "Amaliy san'at", "Yog'och va ganch o'ymakorligi", kurs-2.

O'qituvch to'g'risida ma'lumotlar: Ma'lumoti oily yilda ni bitirgan pedagogik, staji yil, toifasi

Mavzuning shaqillantirilishi belgilangan talablarga mos keladi, qisqa mazmunli;

Darsning jihozlanishi: a)o'quv-metodik; 1) E.umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyxujaeva "Estetika asoslari". KHK lar uchun o'quv qo'llanma. Beshinchi nashr Toshkent, Cho'lpon. 2011 y. 114-122 betlar, 2) S.S.Bulatov.

Amaliy bezak san'ati. Toshkent. Meros. 1996 y. 246 –bet. 3) S.S.Bulatov. Ganchkorlik. Toshkent o'qituvchi. 1998-y 188-bet.

b) Moddiy–texnikaviy: turli xil yog'och, gipis, ganch, alibastr, naqshlar, uskunalar, quticha va boshqalar namunalari , kompyuter, slaytlar, videoproyektor, ekran va boshqalar.

Dars maqsadlari: a)Ta'limiy-o'quvchilarda amaliy san'at turlari va sohalarida estetik bilimlar berish;

b) Tarbiyaviy-o'quvchilarda ganchkor, yog'och, metal o'ymakori va boshqa ustalarning kasbkor nozik xislatlarini va fazilatlarini shaqillantirish.

s) Rivojlantiruvchi–estetika asoslari kurslaridan olgan BKM larni amaliy san'at turlaridan olgan BMLari bilan uyg'unlashtirilishi.

d) Amaliy: ganchkor, yog'och o'ymakori ishlari va yumishlari bajarish:

Dars fotografiyasi (tuzilishiga) mos holda vaqtning taqsimlanishi: a) Tashqiliy kirish qismiga- 5-7 daqiqa

b) Asosiy qismiga – 55-60 daqiqa;

s) Yakuniy qismiga – 7-12 daqiqa;

O'tgan mavzu takrori; S: O'tgan mavzuda nima o'tilgan edi? Javob: Tasviriy san'at va boshqa san'atlar turlari, Savol: Tasviriy san'atga qanday san'at turlari kiradi? Javob: Narsaning o'ziga qarab rasm ishlash; portret, natyurtmort, haykaltaroshlik, kompyuter grafikasi, haykaltaroshlik, rangtasvir, bezak san'atiga, devorlarga, asfaltga tasvirlar chizish; amaliy bezak san'ati va boshqalar kiradi. Savol: Portret janrida nimalar tasvirlanadi? Javob: Insonlar qiyofalari, yuz qismlari chiziladi.

Yangi mavzu bayoni: Guruhdagi o'quvchilarni 3 ta guruhchaga ajratiladi. 1-guruhga “Naqqoshlar”, “Ganchkorlar”, “O'ymakorlar” kabi nomlar qo'yildi. Har bir guruhchaga 6 nafardan o'quvchilar birlashtirildi.

Sardorlar belgilandi: “Naqqoshlarga” – Axmedov S, “Ganchkorlar”ga - Rashidov F, “O'ymakorlar”ga –Sadirov Komil;

Har bir guruhcha alohida joylarga o'tirib olishgach, ularga alohida turdagi savollar berildi va tayyorlanishi uchun 25-20 daqiqadan vaqt berildi;

1. San'at turining maqsad va vazifalari (naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik);

2. San'at turining paydo bo'lishi tarixi, rivojlanishi (naqqoshlik, ganchkorlik va yog'och va metal o'ymakorlik);

3. Mamlakatimizda mazkur san'at turi keng tarqalgan hududlar, mohir ustalari maktablari (naqqoshlik, ganchkorlik va o'ymakorlik)

4. San'at turida qo'llaniladigan materiallar (bo'yoq, sir, lak, ganch, gips, alibastr, ohak, yog'och, metal va boshqalar);

5. San'at turida foydalaniladigan, ishlatiladigan asbob-uskunalar turlari, jihozlari ta'rifi?

6. San'at turida tayyorlanadigan mahsulotlar, buyumlar, ularni foydalanishi sohalari(naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik);

o'quvchilarga savollar tarqatilgach, ular yechimlarni topishlari uchun vaqt berildi. (20 daqiqacha) shu vaqt o'tgach, sardorlar yoki yetakchi o'quvchilar chiqib, navbat bilan savollarga javob berdilar. Har bir guruhda 3 nafardan faol o'quvchilar va sardorlar javob berdilar. Savollarga javoblar ham har bir guruhchaga 10 daqiqadan vaqt sarflandi. Umumiy ballarni chiqarishda baxsli holatlar yuz berganida qo'shimcha savollar berildi: masalan 1) pargor nima uchun ishlatiladi? 2) kompazisiya nima? 3) geometrik naqshlarga nimalar kiradi? 4)estetik tarbiya nima? 5) estetik ong nima? 6) estetik tafakkur nima? 7) estetik hislatlarga nimalar kiradi? 8) qo'pollik holatlariga va odoblilik hislatlariga misollar keltiring? 10) nafis fazilatlarga misollar keltiringlar?

O'qituvchi yo'qoridagi asosiy va qo'shimcha savollarni umumlashtirib (mezon har bir savolga 10 baldan) guruhlarning olgan o'rinlarini belgilab chiqdi;

I-o'rin ganchkorlik guruhiga - 80ball;

II- o'rin naqqoshlik guruhiga -75ball;

III- o'rin o'ymakorlik guruhiga - 65ball;

Darsda tarqatmali qurollardan savollar yozilgan muommoli topshiriqlar, kartochka topshiriqlar tayyorlangan. Darsda muommoli topshiriqlar, aqliy hujum, rolli va ishchanlik o'yinlari, savollar javoblardan unumli foydalanildi. O'quvchilarning guruhlarda sardorlari va a'lochi o'quvchilarning o'z-o'zlarini hamda yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarni nazorat qilishlari "Breyn-ring" "zukkolar va topqirlar" o'yinlaridagi kabi ta'minlandi. Darsda an'anaviy vaqt taqdimotlarining aralashib ketishiga, bilish jarayonida ko'proq vaqt ajratilishi kuzatiladi. Dars vaqtida naqqosh, ganchkor, yog'och o'ymakori, mislar, metal o'ymakori kasblariga doir tushuncha va tasavvurlar berildi. Ustoz marhamati, mahorati, shogirt harakati, intilishlari, odoblari to'g'risida tushuncha berildi. Ustozlar usta Shirin Murodov, Toshpulat Arslanqulov, Vali Ahmedov, Xudayberdi Xaqberdiyevlar yaratgan hunarmandlari to'g'risida hikoya qilindi. Turli xil atamalar ganch, naqsh, kompazitsiya, nargor, chizgich, marg'ula, olma, lola guli, geometrik, parrandasimon, oygul, gul, gulkosa, kabi atamalarga sharhlar berildi, ularni tayyorlash texnologiyalari to'g'risida fikr mulohazalar yuritildi.

Darsda yozuv tahtasidan, tarqatmali va ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanildi. Umuman olganda o'quv mashg'ulotlarining amaliy san'at turlari vositasida estetik tarbiya berish imkoniyatlari o'rganib chiqilib qo'yidagi xulosalar, taklif va tavsiyalar berildi.

1. O'quv mashg'ulotlari o'quvchilarni amaliy san'at turlatida turli xil tushunchalar tasavvurlar, provard natejada BKMLar shaqillantirilishi va rivojlantirilishida muhim o'rin tutadi.

2. O'quv mashg'ulotlarining noan'anaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda yangi uslublar muhim o'rin tutadi, chunki ushbu darslarda o'quvchilarning faolligi muhim o'rinlarni egallaydi.

3. O'quvchilarning estetik tarbiyasini amalga oshirishda estetik BKMLarga aylantirilishida amaliy san'at turlari alohida o'rin egallaydi.

4. Amaliy san'at turlaridan naqqoshlik, ganchkorlik, boshqa turlarining fundamental (poydevoriy) asos hisoblanadi. Chunki, amaliy san'atning boshqa

turlarida qo'llaniladigan naqshlar, ularning elementlari naqqoshlikdan naqqoshlikdan boshlab o'rganib boriladi. umuman olganda darslarning turli nazariy, amaliy, seminar va enterfaol bo'lishlari ham tarbiya turlarini amalga oshirishda rang baranglikni ta'riflaydi.

2.2. Amaliy san'atni sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda urgatilishining uziga xos xususiyatlari

Tasviriy va amaliy san'atdan tashkil etiladigan maktabdan va sinfdan tashkari ishlarda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatigi yo'naltirishdir. Ijodkorlik xis-tuygusi yakkol seziladigan, mustaqil fikran va ishlay oladigan kishigina o'ziga xoslikka, erkinlikka ega bo'ladi va o'xshashi yo'q, bir-birini takrorlamaydigan asarlar yarata olishi mumkin. Ijodkorlik - kishining mustaqil faoliyatining va faolligini oliy shaklidir. Insonning ijodkorligiga uning maxsulning (Ma'naviy yoki moddiy. A.U.) ijtimoiy ahamiyati va yangiligi, sofligi darajasi bilan o'lchanadi. Ijodiy jarayonning bir qancha o'ziga xos jixatlari uni oddiy faoliyatdan ajratib turadi:

a) Muammoning qo'yilishi, ya'ni, amaliy san'at to'garaklarida yasalishi lozim bo'lgan buyumning ahamiyati, birinchi marotaba qilinmoqdami yoki ilgari ham bajariganmi, buni belgilab olish, agar ilgari shu mazmundagi buyurtmalar bajarilgan bo'lsa, ushbu buyurtma nimasi bilan ilgari gilaridan farq qiladi;

b) Ishning ijodiyligini, muammoliligi ni ko'ra olish;

v) O'quvchidagi zaruriy bilimlarni faqat takrorlamasdan, yangi bilimlar ko'ranishini talab eta olish, borlarini esa butunlay safarbar etishi;

g) O'kituvchi-to'garak rahbari bolalarga topshiriq, berishida, bolalarning xayotiy tajribasini nazarda tutmogi lozim.

Biz quyida san'at to'garaklarida o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etishning diqqatga sazovor tomonlarini bayon etmoqchimiz.

Tasviriy va amaliy san'at, shuningdek amaliy san'at to'garaklari odatdagi sinfdars mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini yo'lga qo'yishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Dars mashg'ulotlaridan to'garak mashg'ulotlari o'zining quyidagi qator belgilari bilan farq qiladi:

Birinchi, to'garak mashg'ulotlarida o'quv mavzulari ish rejasiga qarab emas. o'quvchilarning qiziqishlariga, qobiliyatiga qarab;

Ikkinchi, o'quvchilar guruhlari, maktab darsidagidek barcha teng yoshdagi bolalar aniq sinflarga majburiy birlashtirilishiga qarama-qarshi o'laroq o'quvchilarning xoxishlari turiga, qiziqishlariga qarab guruhlar shakllantiriladi (65, 46.).

Uchinchi, to'garaklarda qatnashish, qatnashmaslik masalasi mutlaqo ixtiyoriy, o'quvchilar xoxlagan vaqtlarida bir to'garakdan ikkinchi to'garakka o'tib ketishlari, to'garaklardan chiqib ketishlari, ba'zi hollarda esa 1-2 ta to'garaklarda baravariga qatnashishlari mumkin. Masalan, ijodkorlik-sport (suzish), modelchilik-xavaskorlik, tasvirsh va amaliy san'at- me'morchilik kabilar.

To'rtinchi, to'garak rahbar(mashg'ulotlarni olib borish jarayonida, mashg'ulotning tuzilishida bevosita qat'iy dars tuzilishi talablariga o'xshash bo'lib, tashkiliy qism, asosiy qism-yangi mavzu bayoni, yakuniy qism-mavzuni mustahkamlash kabilarga rioya qilmasligi mumkin. Albatta, bu xol, har bir to'garak rahbari mashg'ulotni xoxlaganicha o'tishi yoki o'tmasligi mumkin degan fikrni keltirib chikarmaydi, faqat, mashg'ulotning ba'zi qismlarini masalan, amaliy mashg'ulotlar qismini yoki namoyish etish qismini yoki yasalgan buyumlar va boshqalar taxlilini chuqurlashtirib, kengaytirib berish mumkin deb tushunmoq kerak.

Beshinchi, to'garak mashg'ulotlari ma'lum sohani chuqur o'ranishiga mo'ljallangan, o'quvchilar to'liq mustaqil harakatlanishiga, erkinligiga, mashg'ulot davomida bevosita amaliy harakatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ya'ni, dars mashg'ulotlaridagidek to'liq o'qituvchi yakka xokimligi

(gegemonligi) ostida o'tmaydi, o'quvchilar faolligi ta'minlanib, o'qituvchi kuzatuvchi-maslahatchi ro'lini bajarishi mumkin xolos.

Oltinchidan, amaliy san'at to'garagi qatnashchilari bergan topshiriqlarni bir mashg'ulotda bajara olmay qolsalar yoki 2-3 mashg'ulotga mo'ljallangan topshiriqni mo'ljallanganidan qisqa vaqtda bajarib ulgursalar, boshqa bolalarning ushbu mavzuga yetib kelishini kutib o'tirmasdan bevosita yangi mavzuni o'rganishga o'tib ketaverishlari mumkin. To'garaklar bevosita belgilangan sinfxonalardagina emas, balki, ijodiy ish buyurtmalarini bajarish joylarida, binolarda, me'moriy obidalarda, muzeylarda va boshqa joylarda ham o'z faoliyatini tashkil eta olishlari mumkin.

Amaliy san'at to'garaklari bolalarning qiziqishlari, bilimlari xajmi, ko'nikmalarining shakllanganligi darajasiga qarab, asosan 3 bosqichda (guruhda) tashkil etishi mumkin.

1. Kichik guruh (9-12 yoshdagi bolalar uchun);

2. O'rta guruh (12-14 yoshdagi bolalar uchun);

3. Katta guruh (15-17 yoshdagi bolalar uchun) albatta, yuqoridagi keltirilgan guruhlardagi o'quvchilarning yoshi qat'iy tartibda, faqat «mazkur yoshdagi bolalar o'qishi shart, boshqasi mumkin emas» degan mazmunda yoshdagi qat'iy man etish tartibida belgilanmaydi. Kichik guruhdagi bolalar o'zlashtirishi sifatiga, ko'lamiga qarab, navbatdagi bosqichlarga belgilangan vaqtdan ertaroq o'tib o'qishlari ham mumkin. To'garakda mashg'ulotlarni olib borishda har bir guruh uchun o'quv dasturi, mashg'ulotlar rejasi tuzib olinadi, metodik kengashda muxokama etilib, mas'ul rahbarlar tomonidan tasdiqlanadi.

Kichik guruhda amaliy san'at bo'yicha quyidagi mavzularni o'rganishni tashkil etish mumkin.

1. Xayotimizda amaliy sab'atlarning tutgan o'rni, yog'och san'at haqida;

2. Xavsizlik qoidalari (yongin, elektr, gaz va sanitariya-gigiyena qoidalari);

3. Naqshlar, ularning turlari, elementlari, oddiy, xoshiya, o'simliksimon, napopi, geometrik naqshlar;

4. Amaliy o'yishga tayyorlash, rejalash, naqshlarni belgilash;
5. Turlicha chuqurlikda o'yish asboblari ularning tuzilishi;
6. Amaliy san'at uchun zaruriy materiallar tayyorlash;
7. Amaliy san'atning ish o'rniga qo'yilgan talablar yorug'lik, xavo, namlik;
8. Amaliy san'at buyumlari, tavsifi;
9. Amaliylarga duradgorlik ishlovi bosh, quritish, rejalash, arralash, kesish, teshish, birlashtirish, pardoqlash;
10. Amaliy san'at bajariladigan taxtalarni o'yishga tayyorlash, ivitish, quritish, yog' shimdirish, rejalash, yelimlab birlashtirish dastlabki o'yish ishlarini bajarish va chaqichlash;
11. Sodda buyumlarga oddiy tuzilgan naqshlar o'yish, amaliy san'at maktablari;
12. Xiva, Urganch-Xorazm maktablari, ish uslublari; Toshkent maktabi; Farg'ona maktabi; Samarqand, Buxoro va boshqa maktablarning o'ziga xos ish uslublari.
13. Bajarilgan ishlardan namunalar tanlab taxlil qilish, ko'rgazmalar tashkil etish.

To'garaklarda bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda, ularning estetik tarbiyalanishi shakllanishiga ham e'tiborni qaratish lozim. O'quvchilarning naqshlarni yod olishlariga, tasvirlashlarida ularning ijodkorlik qobiliyatlari, kuzatuvchanliklari, mulohazakorlik va sermushohadaliklar), fikrlashlari, nafis tuyg'ulari taraqqiy etib boradi. Narsalar va xodisalar to'g'risidagi bilimlari kengayadi, amaliy san'atga, go'zallikka, xayotga qiziqishlari kuchayadi, tabiat, olam, jamiyat, inson go'zalliklarni xis eta oladigan qalbi ham, xayoti ham go'zal insonga aylanib boradi. Amaliy o'ymakorlikni o'rganishda va o'rgatishda bolalar keng ruxiy va yosh, o'ziga xos xususiyatlarini o'qituvchi va murabbiy usta mutlaqo unutmasligi lozim. Bolalarning yosh rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra, xotiraning kuchi, esda saqlash va esga tushirish tezligi, jismoniy rivojlanishi, masalan, yuk ko'tara olish, bolta (bosqon, iskana) bilan chakichni, iskanani ura olish quvvatini mo'tadillashtira olish, ko'rgan, eshitgan, o'qigan axborotlarni

eslab, qayta yodga tushirish, o'z faoliyatida qo'llay olish juda muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilarning eslash va yodga olib qolish xususiyatlari turli ustalarning ijodiy ish usullari bilan takomillashtirish vaqtida bunday uslublarning xech bo'lmaganda asosiylarini o'zlashtirib olish, naqshlarning elementlarini yasash va birlashtirib, kompozitsiyalar, tasvirlar chiqara olishlari yosh xususiyatlari va qobiliyatlarshi hisobga olish joizdir. Murabbiy, o'qituvchi, usta o'quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olishi, shakllantirish va doimiy ravishda takomillashtirib, oddiydan murakkabga tomon rivjlantirib borishi lozim.

Ayniqsa, bolalarning turli yosh davrlarida, bir yosh davridan ikkinchi davrga o'tish davrlarida uning ruxiyatada, rivojlanishida bo'ladigan o'zgarishlarni ham hisobga olish muhimdir. Turli topshiriqlarni har bir yosh davriga moslab berib borish e'tiborga loyiq, omildir. Masalan, bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrlarida va bu davrlarning biridan ikkinchisiga o'tish davrida bolalar harakterida, ruxiy xolatida sezilarli o'zgarishlar bo'ladi. Murabbiy, o'qituvchi, usta bu o'zgarishlarni ko'ra olish zarur.

O'qituvchi murabbiy, usta o'quvchilarning yosh, shaxsiy, ruxiy xususiyatlarni hisobga olib ularga topshiriqlar berib borishda dastlab tayyor andazalar berishi ham mumkin, ammo, tayyor andazalarni doimiy ravishda berish mumkin emas, chunki, andazalar bilan doimiy ishlash bolalarni ijodiy mushoxadadan, mustaqil fikrlashdan chalg'itadi. Masalan, amaliy san'atda, amaliy o'ymakorlik ishlovi berishga tayyorlashda, usta tayyorlash usulini ko'rsatib, tayyor buyumlar (xom-ashyo) namunasini namoyish qiladi. O'quvchi esa, namlash, ko'ritish, siyaliklash, ulchash, kesish, arralash va yog shimdirish ishlarini o'zlarga bajartirishlari lozim. O'lchash; rejalash ishlarni bajarishda usta butun yumushlarni doskaga yoki taxtaga guruhiga bir marotaba sirkul, chizgich, pargor, ip bilan bajarib ko'rsatiladi. O'quvchilar esa har biri o'z oldidagi namunalarga o'zlar o'lchash, rejalash bajaradilar. O'qituvchi, usta esa kuzatuvchilik vazifasiga kirishadi.

Amaliy ijodkorlik bo'yicha to'garaklar mashg'ulotlarida bolalarning zexni, idroki, xotirasi, eslashi, qiziqishlarini bosqichma-bosqich rivojlanib va takomillashib borishini ta'minlanishi zarur. Zexn, idrok etish kishi miya faoliyatining o'zgaruvchanlik qobiliyati bo'lib, ijodkorlikda asosiy o'rin tutadi va turli fantaziyalarning kelib chiqishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi (17,8s). Bolalarning xayollarini, fikrlashlarini, diqqatini ishlov berilayotgan buyumga qarata olish, unga halaqit beruvchi turli omillar san'at asarining yuqori sifatli chiqishining asosiy garovlaridan hisoblanadi. Albatta, bu omilni usta yoki to'garak rahbari hamisha nazarda tutmogi lozim.

Amaliy san'at san'ati namunalari yaratishda ustalar va bolalarning ijodiy faoliyati barcha imkoniyatlar bilan mustaqil, erkin holda harakatlanishlariga ishonitirishlari lozim. Bolalardagi erkinlik ruxiyati, xissiy sezgirlik kuchi mehnatkashlikdan chetlashish turli qoliplanmagan, chegaralanmagan. Ko'zda tutilmagan yangi maxsullarining yaratilishiga olib kelishi mumkin. Bolalarning ba'zida erkin fikrlashlari salbiy, qo'pol, odatdan tashqari namunalar yaratishga, yaroqsiz maxsulotlar tayyorlashga olib kelsada, bu holdan qo'rqmaslik lozim. O'qituvchi yoki usta bu xolning sabablarini tushkunlik kayfiyatining kelib chiqish sabablarini sinchiklab aniqlab, xatolarini tuzatish, bu holdan chiqish uchun zaruriy tavsiyalar bermog'i lozim.

Amaliy san'atda o'quvchilarning erkin fikrlashlarini, harakatlarini, mustaqil faoliyatlarini tashkil eta olish «Bolaning bola bo'lishi» xuquqini yuzaga chiqarilsagina tasviriy san'at ta'limi o'z vazifatarining muhimlaridan biriga erishgan hisoblanadi.

Tasviriy va amaliy san'atdan to'garak mashg'ulotlarida, shu turkumdagi sinf-dars mashg'ulotlaridan farqli o'laroq bevosita mashg'ulot davomida turli qo'shiqlar, ashulalar yozilgan kassetalarni magnitofan yozuvlarni, unchalik baland bo'lmagan ovozda qo'yib qo'yish ham mumkin. Albatta, «Musika» deganda har xil «daxshatli» qichqiriqlar, qiy-chuv, shovqin-suronli, behayo pop-shoular yozilgan kassetalar emas, sigal, milliy, jozibador, musiqa oxanglar yozilgan

kassetalaridan odob bilan foydalanmoq lozim. Bu xol o'quvchilarning eshitishga ham bog'liq xis-tuyg'ularini uyg'otishga, xotirjamlik kayfiyatining paydo bo'lishiga, hamda, turli tazyiq, tortinish va man etishlar kabi ruxiy tuskinliklarni bartaraf etilishiga ham olib keladi.

Bolalarga ijodiy ruxiyatni bog'lash uchun ustaxonaning estetik jihozlanishiga, ish o'rinlarining qo'layligiga ham e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Turli fanlarning asoslarini o'quvchilarga o'rgatishda zaruriy kabinetlarning jihozlanishining roli, ahamiyatini belgilash to'g'risida turli davrlarda turli olimlar shug'ullanishgan. K.M.Kobuljonov, B.N.Oripov, A.I.Inog'omov, E.I.Ro'ziyevlar tasviriy san'at darslarida chizmachilik, rasm chizish xonalarining ijod uchun qo'laylik yaratilishi, turli jihozlar joylashtirilishini ijodiy maxsuldorligiga ijodiy ta'sirini izoxlaydilar. Z.Ochilovning metodik qo'llanmasida (83) chizmachilik xonalarini jihozlashda o'quvchilarni kasbga yo'llash hamda ijolkorlik va mehnatsevarlik tuyg'ularini tarbiyalashga bevosita e'tibor qaratiladi (83,60 b.).

Tadqiqotchi ma'lum fan xonasini jihozlashda dastlab asboblar, chizmalar, planshet va moslamalarning joylashtirilishi ishlash uchun qulay bo'lishini ta'kidlaydi.

Amaliy san'at ustaxonalarini jihozlashda ham amaliy ishlari (duradgorlik) ustaxonalari jihozlanishining umumiy qoidalaridan qisman foydalaniladi. Turli elektrlashtirilgan qurilmalarining qo'shimcha xonada o'rnatilishiga e'tibor berilishi lozim. Javonlar va tokchalarda asboblar, moslamalar, jihozlar, xom ashyolar, taxtalar, yelimlar va boshqalar tartib bilan qo'yilmog'i lozim. Devordagi osilgan suratlarda esa turli amaliy san'at maktablari (Samarqand, Xorazm, Toshkent, Fargona, Buxoro va b.) namoyondalarining suratlari, ularning ish uslublari, tarixi, iloji bo'lsa sulolalari bayon etilsa, o'quvchilarga ijobiy ta'siri juda kuchli bo'ladi. Devorlardagi navbatdagi pannoda amaliy san'atdagi naqshlar, ularning elementlari, qo'shilishi, yasash usullari yoritiladi. Bog'dodi, islmiy, geometrik naqsh o'yish mazmunidagi tasvirlar chiroyli qilib, bir-biridan farqlari, o'xshashliklari aniq yoritilishi lozim. Naqshlar turlari, namunaviy chizmalari

tasvirlangan tarqatma va ko'rsatmali materiallar, andazalar, axta (ulgi)lar bir amaliy san'at uslubiga moslab to'plab qo'yib qo'yilsa yaxshi bo'ladi. Ustaxonada amaliyga ishlov berish bosqichlari (o'yishga tayyorlash, birlashtirish, yelimplash, kesish, arralash, o'yish, pardozlash, jilvirlash va b.) ko'rsatilgan, turli usullardagi, kattalikdagi buyumlar tayyorlash xususiyatlari ko'rsatilgan tasvirlar yaratilib, ularga maxsus joy ajratilsa xonaning yanada mazmundorligi ortadi. Xonada albatta, yorug'lik (250-ZOOlk), namlik, toza xavo va ish o'rinlari orasidagi masofa ta'minlanishi zaruriy darajada (1m radiusida) bo'lmog'i lozim. Ustaxonaning o'qituvchining ish o'rnini bolalarnikidan 30-40 sm ko'tarilgan, barcha bolalar o'qituvchiga, o'qituvchi ustaxonaning ish stoli, barcha bolalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishi lozim.

Amaliy san'at ustaxonasida bevosita o'quvchilar va o'qituvchi foydalanilgan maydon 50-60m bo'lsa, har bir o'quvchining ish o'rnini bir-biridan 60sm, qatorlari orasida 1m dan uzoqlikda bo'lsa yanada harakatlanish qulay bo'ladi. O'quvchilarning ish o'rinlariga yorug'lik iloji boricha tabiiy yorug'lik tushishi, bu xolni ta'minlashning iloji bo'lmasa, kunduzi yorug'lik lampalari (Neon, argon chiroqlari) yoki stol lampalari bilan ta'minlanishi lozim.

O'qituvchining ish o'rnida uzunligi 2,5-3 m, balandligi 1,3m bo'lgan yig'ma (3 qismli) doska osilgan bo'lsa yanada yaxshi. Doskada o'chmaydigan katak-katak panjara chizilgan bo'lmog'i lozim. Ustaxona devorlari ochiq rangli bo'yoqqa shaklli qilib bo'yalgan bo'lishi kerak, chunki chiroqlardan, derazalardan tushayotgan yorug'lik devordagi qoramtir rangli bo'yoqlar, tasvirlar ko'rinmasligi, qaytarilish, yuqori darajada bo'ladi.

Amaliy san'at ustaxonasida bolalarning amaliyga ishlov berishning turli bosqichlarida bajargan ishlaridan tartib bilan natijalari ko'rgazmalar qilinsa ularning san'atga qiziqishi yanada kuchayadi.

Ustaxonaning bolalar harakatlanmaydigan tomonida, burchaklarida o'quvchilarni yasagan buyumlaridan, turli natijalardan ko'rgazmalar tashkil qilinishi va bu kurs ko'rgazmaning eksponatlari zarur paytda

olinadigan, namuna-buyum sifatida foydalaniladigan bo'lmog'i lozim. Ko'rgazmada amaliy san'at bosqichlariga mos namunalar, yirik buyurtmalarning suratlari, chizmalari ham bo'lmogi joizdir. Har bir eksponat tagiga yoki yoniga buyumning nomi, o'lchamlari. Kim tomonidan va qachon yasalganligi tavsiflari chiroyli qilib yozib qo'yiladi.

Buyumlarning eng yaxshi namunalari alohida pardoatlanib, bo'yalib, ularni tayyorlagan bolalarini o'sha buyum uchun olgan faxriy yorliqlari, rag'batlantirilishlaridan ko'chirma nusxa bilan mustahkamlanib qo'yiladi.

Amaliy san'at to'garaklarida bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini yuqorida ko'rib o'tganimizdek 3 bosqich (guruhlar)da mashg'ulotlari olib borish orqali shakllantiriladi. Kichik guruhlarda keltirilib o'tilgan boblar guruhlaridan 2,3,4,5,6 va boshqa mavzularni ko'prok amaliy mazmunga ko'tariladi.

Bolalarning amaliy san'at dan turli yumushlarni bajarishda ustaxonada jaroxatlarsiz faoliyatini tashkil etishda xavfsizlik qoidalariga o'rgatib, odatlantirib biriladi. Ish o'rnini tartibli, ozoda saqlash, xom ashyolarni, taxta, g'ula, payraxa va qirindilarni, chiqindilarni yig'ishga qo'lqop, xokandoz, supurgi bilan ishlash zarurligi tushuntiriladi. Taxtalarni tilishda, yo'nishda, randalashda, arralashda, tig'ini va tishlarini o'tkirlash, charxlash, kilovini to'qishda qayroqtoshning xarakatlanishini usta, o'qituvchi o'zlari bajarib ko'rsatadilar. Keyin, chiqindilarni bir joyga to'plab qo'ymaslik, yong'in xavfsizliga qoidalariga rioya qilish uqtiriladi. Turli asboblardan ishlashda, masalan, taxtalarni o'yish uchun iskanani va boltani ushlash qoidalarini iskanani bo'shroq, boltani qattiqroq siqib ushlash zarurligi aytiladi. Albatta, maxsus ish kiyimining zarurati aytiladi. Usta yoki o'qituvchi o'yish uchun taxtalarini tayyorlashda elektrlashtirilgan stanoklardan olishi mumkinligi va bu yordamchi bolalarning ham ba'zi elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari zarurligiga o'rgatiladi.

Stanokni yurgizishdan oldin barcha simlar, uzellarning izatilishi, ulanishi ko'zdan kechiriladi. Oyoq tagida taxta panjaraning mavjudligi, stanokda ximoya vositalarining butunligiga e'tibor beriladi. Agarda arralash va randalash, teshishga

to'g'ri kelib qolsa (odatda, bolalarning o'zlariga mustaqil holda elektrlashtirilgan stanoklarda ishlashga ruxsat etilmaydi) tayyorlanmani o'rnatmasdan, salt xolda yurgizib ko'rish lozim. Shundan keyingina tayyorlanmani stanokka o'rnatiladi. Agarda ba'zi simlarning izolyatsiyasi ochilib qolgan, stanok yerga ulanmagan bo'lsa, tayyorlanma o'rnatiladigan moslamalar maxkamlanmagan bo'lsa stanok yurgazilmaydi. Topilgan kamchiliklar zaruriy mutaxassisni (yoki ustani) chaqirib tuzatilgandan so'nggina ishlashga ruxsat etiladi.

Stanokda ishlayotgan bola bilan yonida turgan bola bir-biridan kamida 1 m masofada turishi lozim. Stanok yurib turganda tayyorlanmani o'lchab ko'rish, stanokdan olish, qo'yish mumkin emas, faqat stanokni o'chiribgina bu ishlarni amalga oshirish mumkin. To'garaklarda ishtirok etayotgan o'quvchilar xavfsizlik qoidalarini o'zlashtirilgach maxsus daftarga imzo chekkandan keyingina mashg'ulotlarga qo'yiladi.

Amaliy san'at to'garaklarida naqshlar, ularning elementlarini, turlarini, dastlab oddiy chiziqlarni yasashdan boshlab o'rgatiladi. Oddiy naqsh elementlariga quyidagilar kiradi: barg, bodom, uchbargli gul, ko'pbargli gul, paxtagul, 4,5,6 qanotli oygul, gajak, jingalak, kuvacha gul, marula, yo'l, margulali yo'l, bofta, qo'sh band, shriftlar. Naqshlarni o'ragashda ularning asosiy guruhleri haqida tushuncha berish lozim.

Islimiy – o'simliksimon naqshlar turi, ular novdalar, barglar, g'unchalar, kurtaklar, lola, qalampir, nok, anor, bodom, poya, olma, olmagul, lola gul, atir gul va boshqalar. Girix to'g'ri chiziqli geometrik shakldagi naqshlar-uchburchak yo'lli, to'rtburchak (burchaklarining soniga qarab 16 burchakka bo'ladi), zanjira, murakkab zanjira, aylanma zanjira va boshqalardan iborat. Murakkab islmiy va gulli girixlar birlashmasidan tayyorlanishi va har ikala guruhdagi naqshlar nomlari chazishmasidan kelib chiqib jamlanadi. M.: Bodom guli, pechak islmi, bargli raftor, bargli islmi, aylanma islmi, gulli raftor, qo'sh mexrobli islmi, patnis gul islmi, boftali islmi, shukufta islmi, islmi duraftor, ruta, ruta islmi, maloxili kabi

ko'plab murakkab naqshlar borki, bu naqshlarni har bir usta har xil uslubda, har xil tuzilishlar yasaydilar.

Naqshlarning har bir elementini, qismini turini, guruhlarini o'yishda «oddiydan murakkabga osondan qiyinga» rioya qilib borish lozim. Amaliy san'atda taxtalarni o'ymaga tayyorlangach axta (ulgilusxa)shni va xoka tayyorlab olinadi. Naqsh tushirilgan buyum yuzasining o'lchamiga qarab axtaga mo'ljallangan qism qirqiladi. Keyin ulanadigan (chiziladigan) naqshning tuzilishi teng tomonlariga qarab 2,4,8 buklangan qog'ozga gulning (naqshning) qismlari chizib olinadi.

Naqsh to'liq chizilgach, ushbu chiziqlarning ustadan igna bilan teshib chiqiladi. So'ngra naqsh shakli teshilgan qog'ozni ulanadigan buyum ustiga yozilib, oq bo'r yoki qora kuya (ko'mir maydasi)ga lattani botirib olib, qog'ozning ustida silkitilib, suriladi. Ulanadigan taxtaning yuzida naqshning izlari qoladi. Ana shu izning ustidan avvalo qalam yurgiziladi, so'ngra to'g'ri iskanalarni bolta bilan sekin urilib chekichlanadi. So'ngra qog'oz olib tashlanadi va zamin iskana bilan turli chuqurlikda o'yilib, naqshlar ochila boshlanadi. Iskana chap qo'lda bolta esa o'ng qo'lda ushlanib, naqsh to'liq kesiladi va atrof zamini o'yiladi.

Naqshlarning qanaqa guruhga mansubligi, tayyorlanadigan buyumning katta yoki kichikligiga qarab, naqshlarning dastlab yarim gajak, margulshgarning atrofi nova iskanalar bilan o'yiladi. Bezaklarning novdalari, chiziqlari, bandlari baliq sirtli iskana bilan o'yiladi. Naqshlar atroflari to'liq kesib bo'lingach, maxsus uchi egik iskana bilan naqshning zamini o'yilib chuqurlashtiriladi. Tekisshlashda to'g'ri zamin iskanalar ishlashladi.

Bolalarni har bir bosqichda muvaffaqiyatli ijod qilishlari uchun ularning naqshlari, ularning elementlari, kelib chiqishi, o'yilayotgan amaliy, o'yish asboblari, qog'oz, ko'mir (yoki bo'r) kukuni, rejalash, chizish asboblari, ularning tuzulishi, xususiyatlari to'g'risida yetarlicha bilimlarga, asboblar bilan yumushlarni bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratash lozim. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, ichki dunyosining boyligi, fikrlash tezligi,

zexnining yuqoriligi, xotirasining kuchliligi har bir naqsh elementlaridan naqshni butunligacha keltirib chiqarishi, oddiy naqshlardan murakkab naqshlar tuza olishlari, ularni qog'ozda va amaliyda namoyon qila olishlari darajasiga bog'liq bo'ladi.

Amaliy san'at to'garaklarida naqshlarning tuzilishi, elementlari, kompozisiya, bir-biriga uyg'unlashishi mazmunan va shaklan bir-birini to'ldirishini va natijada yaxlit bir naqsh majmuasini tashkil etib buyumga ma'no va xusn bag'ishlashi uchun o'quvchilarda dastlab chizmakashlikka doir bilimlar, ko'nikmalar va malakalar shakllanmog'i lozim. Chizmakashlik bilimlari o'quvchilarga tasviriy san'at, rasm chizish, chizmachilik, texnikaviy grafika kabi nomlangan darslarda dastlabki elementlaridan boshlab o'rgatilib boriladi.

Chizmachilik bilimi amaliy faoliyatning tarixi rivojlanishi, ahamiyati insoniyatga juda qadimdan tarixiy zaruriyat sifatida ma'lum bo'lib, o'rganilib kelingan. Buyuk mutafakkir, allomalar Abu Rayxon Beruniy, Axmad Farg'oniy, Muso Al-Xorazmiy, Mirzo Ulugbek, Ali Qushchi kabi ko'plab donishmandlar o'zlarining matematika, xandasa, astronomiya, astrologiya, tabbiyot, jug'rofiyaga oid yuzlab asarlarni turli chizmakashlik mahoratlaridan foydalanganlar, xatto o'zlari murakkab o'lchov asboblarning tarxini (chizmasini) chizib, o'sha asboblarni o'zlari yasaganlar.

Mutafakkir alloma Alisher Navoiy Xazratlari chizmakashlik ilmining komil insonning ulug' fazilat tarzdan ekanligini juda mahorat bilan kuylaydi. Uning «Hamsa»sining tarkibiga kiruvchi dostonlaridan hisoblanuvchi «Farxod va Shirin» dostonida muxandislik, imoratlar loyihalari, me'morchilikning qoidalarini batafsil, go'zal qilib ifodadaydi:

Musavvir mustaqil uja rakamkor, chekib andokki jalvat birla paror. U (Farxod A.M.), ya'ni, eng murakkab to'garak naqshlarshi ham paror (sirkul A.M.) bilan oddiy tugrz chiziq chizganday yasar edi. Demak, har bir hunar kishisi, har bir barkamol shaxs chizmakashlik ilmidan qisman bo'lsa ham xabardor bo'lishi zarurligini Alisher Navoiy ta'kidlab o'tadilar. Xazrat Navoiyning faqat asarlarigina

chizmakashlik, hunarlar egallanishi eslatibgina qolmasdan, u kishining o'zlari ham talantli chizmakash, musavvir, me'morlarga bir qancha qurilishlarga ishboshi, xomiy sifatida tanilganlar. Kezi keshanda shuni eslatish joizki, u xazrat Vazirlik qilayotgan davrla Xurosonda, jummlalan Xirotda ariqlar qazilgan, suv chiqarilgan, Madrasa, hamomlar qo'rilgan, me'mochilik obidalari qad ko'targan.

O'zbekistonda hozirgi davrda chizmachilikka oid yaratilgan, o'tmishda o'tgan allomalarimizning, xatq ustalari, me'morlarining chizmakashlik ilmidan naqadar chuqur, yetuk bilimlarga ega bo'lganligi keng miqyosda o'ganilmoqda.

Zamondosh olimlarimizdan A.Umronxujayev, Yu.Kirgizboyev, Z.Inog'omova, N.Abdullayev, R.Xasanov, E.Ro'ziyev, E.Sobitov, K.Kosimov, P.Zoxidov, Z.Ochilov, L.Xakimov, T.Rixsiboyev va boshqalar o'z asarlarida, tadqiqotlarida ushbu fanning taraqqiyotiga oid muammolarni yoritdilar.

A.Umronxujayev chizmachilik Fani taraqqiyoti bilan shugullangan, hamda O'zbekistonda «Texnikaviy grafika» fanining, dareliktarining kirib kelishida yetakchi o'rin tutgan olimdir.

R.Xasanov respublikamizda tasviriy san'at, yoshlarni badiiy madaniyat fazilatlarini shakllantirishga bag'ishlangan faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy maktab yarata olgan olim hisoblanadi.

Yosh uslubchi olim Z.Ochilov o'zining asarlarida, maqolalarida chizmachilik fani, taraqqiyoti, Mavarounnaxr va Xurosonda yashab o'tgan allomalarning ushbu fan taraqqiyotida tutgan o'rnining aniqlashga jiddiy muvaffaqiyatlar qo'shgan.

Chizmachilik ilmida qo'llaniladigan turli jihozlar, o'lchov asboblari, rejalash usullari va moslamalari hozirda ham amaliy san'atda unumli foydalanilmoqda. Masalan, pargar (sirkul), chizgich, rishta (ip), davot, jazval, kumish (metal), qalam, qalamdon, ignalar, qog'oz, turli harflarning yasatishi (shriftlar), siyoxlar, ranglar, shovun shoqul kabilar hozirda ham me'morchilikda, yer rejalashda, binokorlikda, qurilishlarda shu jumladan ularning ajralmas qismi bo'lgan duradgorlik va amaliy san'atda ham keng-qo'lamda qo'llanib kelinmoqda.

Oddiy ip (rishta, reja) juda qadim zamondan buyon turli o'lchamlar qo'yish, imoratlar poydevori kengligi, uzunlik o'lchamlar qo'yish, imoratlar poydevori, devorlari kengligi, uzunligi, eni, aylanasi uzunligiga, naqshlarning har bir guruhi ko'lamini, ustalar, eshiklarning tiklig, qiyshik yoki to'g'riligining aniqlash, eshiklarga turli moslamalar, zulfinlar, qulflar, oshiq-moshiqlar (yarim harakatchan), deraza va romlarning joylarini belgilash va o'rnatishla asosiy rejalash, belgilab olish vositasi xisoblanib kelinmoqda.

O'qituvchi keng tarqalgan maqollari, dono so'zlari ham buni tasdiqlaydi: «Yetti o'lchab bir kes», «Temir kessang qiska kes, uni cho'zsa bo'lodur, amaliy kessang uzun kes, uni kessa bo'lodur», «Rejali to'y tarkamas», «Rejalining uyi to'y, rejasizning xoli voy» va shu kabilar albatta, to'g'ridan-to'g'ri rejalashgagina emas, kishining xayotdagi o'rnini, biror tadbirni, ishni amalga oshirishda mo'ljalni to'g'ri ocha bilishga, zexnlilikka, faxm-farosatlilikka, chuqur o'ylab, pishitib olingandan keyingina amaliy faoliyatga kirishishni uqtiruvchi o'gitlardir (shopil) va tayanch (mosha)larning burchaklarni chikarishda guniya, parorz suvu (sirqo'l) lardan foydalaniladi. Albatta, duradgorlik uning ajralmas qismi bo'lgan amaliy materialini buyum yasashga tayyorlashda nixoyatda aniq, nozik o'lchash, rejalash ishlarini bajarishga extiyoj seziladi. Bu xol esa, amaliy materiallarning bir marta kesishda

xatolikka yoki anglashilmovchilikka yo'l qo'yilsa, uning oqibatlarini tuzatish ancha qiyinchiliklarga olib kelishini, ko'pchilik xatoliklarida esa maxsulotlarning brak bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Biz yuqorida amaliy o'ymakorlik ustaxonasini jihozlashga doir fikrlarimizga qo'shimcha qilib, ustaxonada hunarcharni o'rganishni, har bir hunar, kasb xususiyatlariga, amalga oshirish bosqichlariga bag'ishlangan xalq maqolalari, o'gitlari mutafakkirlarning o'zlari tasvirlangan shiorlar, plakatlar osib qo'yilsa, ustaxonaning jihozlanishi mazmun jixatdan, tarbiyaviy jixatdan yanada boyigan bo'lur edi.

To'garak qatnashchilari o'zlarining chizmakashlik bo'yicha savodxonliklarini turli qalamlar, masalan, yumshoq - M(V), qattik-yumshoq - TM(NV), qattiq - T(N) kabi grafiy qalamlar markalarini, har bir qalamning qattqlik darajasini belgilovchi T1, T2 yoki yumshoqligi M2, MZ, M4 kabi belgilarni bilishlari joizdir. Chunki, o'ymakorlikda rejalash, o'lchash bosqichlarida ma'lum xildagi, qog'ozga naqshlarni tushirishda (axta, ulgi, andoza tayyorlashda) ma'lum xildagi naqshlarni o'yishda bevosita amaliylarga belgilashda yana alohida xildagi qalamlarning ishlatalishini bilib olmoqlari lozim bo'ladi. Metalldan yasalgan chizg'ich-qalam, ignalar, reja ipga tortib qo'yiladigan mixlarning ishlatilish o'rinlari, vaqtlari usta tomonidan o'quvchilarga ma'lumot tariqasida aytib o'tiladi.

Arab, Kirill, lotin shriftlaridagi harflarning belgilari to'g'risida ham o'quvchilarga qisman bo'lsa-da tushunchalar beriladi. Masalan, harflarning juda qadimdan paydo bo'lgan belgilari, turkumlari: dini dabriya, vayshi dabriya, gashtaki dabriya, para gashtak, shoxi dabriya, rozi sexriya, kufiy, sulus, tavke', rik'o, rayxoniy, nasx, nasta'lik kabi yozuvlar to'g'risida umumiy tarzda bo'lsa-da, bolalarga ma'lumot berib o'tilsa, ularning dunyoqarashlari kengayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Har bir harfni, belgini yozishda, shriftlardan so'z tuzishda ularning o'lchamlarga qarab bo'yi, eni, yug'onliga, harflar orasidagi oraliqlar, bosh harflar, foni, so'zning, gapning umumiy tuzilishi, egallaydigan masofasi, tinish belgilarning qo'yilishi, so'zlarning tagiga chizilishi, xoshiyalanishi va boshqalar albatta, chizmakashlik bilimlari soxibiga zaruriy xislatlardir. «So'z» - tasvirlanayotgan buyumni taxlil qilib, to'g'ri bajarishda eng asosiy vositalardan biridir. U chizuvchida fikr yuritib tasvirlash «odatini» shakllantiradi.

Amaliy san'atda turli xil ranglar, buyoklar juda ko'p ishlatilmasa-da, amaliylarning tabiiy rangi, go'zalligini yuzaga chiqarishga harakat qilinsa-da, bo'lg'usi amaliy o'ymakorlik ustasi turli yelimlar, bo'yoqlar, aralashmalar, qo'shimchalar, bo'r, gips, siyoxlar, sirkalar va boshqalarning xususiyatlarini

bilishlari zarur. Inson xayotida turli ranglarni sezish, xis qilish, ranglarning kishi ruxiyatiga ta'siri to'g'risida juda ko'plab ishlar qilinib, rangshunoslik yirik bir fanga, xayotimizning ajralmas yo'nalishiga aylangan.

Xayotimiz ranglar bilan go'zaldir. Taniqlii atoqli rassom, professor M.Nabiyev o'zining «Raxshunoslik va rangtasvir texnologiyasi» nomli qo'llanmasida rang to'g'risida buyuklar fikrini shunday eslatib o'tadi: «Fransiyada texnika estetikasi institutining asoschisi Jak Vyeno bunday yozgan «Rang har narsaga qodir: u nur, xotarjamlik va xayajonni keltirib chiqara oladi. U garyuniya vujudga keltirshi va larzaga solishi mumkin: undan mo'jizalar kutsa bo'ladi, ammo falokatga ham olib kelish mumkin.»».

Amaliy san'at buyumlari ko'pchilik xollarda biror vazifa bajarishlaridan (masalan, eshik, derazalar - tashki xatardan ximoya, ustunlar - yuk kutarib turnish, xantaxta va kursilar – va xo'jalik jihozi sifatida va b.) tashqari yuqori darajada yaratilga o'ziga xos san'at asapi sifatida baholanadi. Tarixiy me'morchilik obidalarida, muzeylardagi, ma'muriy binolardagi amaliy o'ymakorlik buyumlari san'at asari darajasida yaratilib kishiga beqiyos ruxiy ozuqa, estetik zavq-shavq bag'ishlaydi. Bu xollarda esa ustalar turli ranglardan, sirlardan, laklardan moxirona foydalanadilar.

Ma'lumki, amaliy san'atda amaliylarning o'yma ishlovi berishga tayyorlashda turli yelimlardan foydalaniladi. Shuning uchun o'quvchilar turli yelimlarning xususiyatlarini, tuzilishini, manbalarini, mohiyatini, ishlatilish yo'llarini yaxshi bilishlari zarur.

Yelimlar - suyuklangan yukori molekulyar anoranik, organik moddalar yoki ularning eritmaları bo'lib, turli materiallarni yopishtirish uchun ishlatiladi. Yelimlar tabiiy va sun'iy hamda rezina yelimlariga bo'linadi.

Tabiiy yelimlar - xazchvonlar (suyak, sut, teri, va b.) va o'simliklar (daraxtlar shiralari, kraxmali, qayta ishlash natijasida) maxsulotlaridan o'xshatadi. Namlikka olcha chidamsiz.

Sun'iy yelimlar (smolalar - polimerlar emulsiyasi, shuningdek erituvchi Kviun) qo'shilmagan smolalar birikmalaridan iboratdir. Yopishtirilayotgan yuza oralitola qarashli yoki bo'shliq qolmaganligiga ishonch xosil qilish uchun bir-biriga bir necha marta ishqab yuboriladi.

Demak, ko'rinib turibdiki, bo'lg'usi amaliy o'ymakori tayyorlangan buyumini asosiy ishga - o'yishga tayyorlangunga qadar juda jiddiy murakkab yumushlarni bajarishga to'g'ri keladi.

Masalan, turli amaliy gulalarlan turli o'lchamdagi taxtalar olish uchun qo'lda ishlatiladigan va elektrlashtirilgan arralar ishlatiladi. Biz qo'l asboblariga tavsif berish bilan cheklanamiz.

Qo'l arralar - sarjin arra, lobzik, metalli arra (nojovka), kalta arra, turtma arra, dastarra kabilardan foydalanish, ularni ishga sozlash, tishlarining chapporastini chiqarish. O'tkirlash (tezlash) usullarini bilmog'i lozim. Arralar bilan amaliylarni uzunasiga, ko'ndalangiga, burchak ostida va egri yuza (yoyalmon)larini arralash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Tayyorlangan taxtatlarni silliqlash uchun qo'yilagicha nomlangan randalar va jilvir qog'ozlar ishlatiladi. Shexebel, gnuk randa, musht, shliftik, jale (fuganka), sinubel, bukri, konish (zaldubsi), naqshkor, fatsgobel, garatobel, qo'shquloq randa, nov (katevka), tarok randa, chok randa, chorapzat randa, shpuntutbel (paznik) kabilar mavjud. Randalarni ishlatishda bolalar qo'l kuchini to'g'ri taqsimlashni ya'ni randani tekis ilgarilanma harakat qildirishlariga e'tibor bermoqlari lozim. Randalashda oyoq va yelkaning to'g'ri turishi, tirsakning harakatlanishi va tananing boshqa a'zolarining harakatlari bilan uyg'unlashtirishga e'tibor bermoqlari lozim. Randalarning ishga tayyorlashda tishi chiqarish, kiritish, charxlash, qirovini tushirish, mustahkamlash va ponaparsh biriktirish muhim ahamiyatga egadir.

Amaliy san'atda asosiy o'ymakorlik ish.tari iskanatar yordamila bajariladi. Iskanalar o'yish va kesish uchun mo'ljallanadi va quyidaga xillarta bolinadi: tutr1 iskana (keskichn tugri shaklda). nova iskana (tagi yarim aylana shaklda), batik sirti

iskana (tigi yoy shakala), arikchati iskana, kayrtgan kosh iskana, kiya (kingir) iskanatar, morpech iskana.

chekma iskana, ko'rakcha iskana, kovza iskana, chuv iskana va bashka turdagalari ishlatiladi.

Iskanalar asos, dasta, tig' kabi qismlardan iborat. Tiga asbobsozlik po'latidan, dastasi esa qattiq amaliydan tayyorlanib, faskaga po'lat xalqacha kiydiriladi. Biz amaliy san'atda ishlatiladigan iskanalarning qisqacha tavsifini keltiramiz:

Kovza iskana – o'yilgan naqsh chiziqlarining ustiga uch qirrali qavariq bo'rtiqlar chiqarish va chiziqlar chiqarishida qo'llaniladi, to'g'ri va egri tagli bo'ladi.

To'g'ri iskana - tigning eni 1,5 mm dan 10 mm gacha bo'ladi. Botdodi uslubidagi naqshlarni, naqsh tagzaminini o'yishda ishlatiladi.

Nov iskana - o'yishda pardoqlashda, naqshlarning eng mayda elementlarji, qismlarini tayyorlashda ishlatiladi. Eni 2 mm dan 8 mm gacha bo'ladi. Tig'i yarim aylana shaklda bo'lib, kichik, o'rta va katta bo'lishi mumkin.

Zamin iskana - naqshlarning zaminini o'yishda va tozalashda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mm dan 8 mm gacha bo'lgan o'lchamda bo'ladi.

Baliq sirti iskana – tig'i botiq baliq sirtiga o'xshash kamalaksimon bo'ladi. Keskichining eni 4 mm dan 19 mm gacha bo'ladi. Naqsh bezaklarining novdalarini qiyaroq va yotiqroq chiqqan chiziq atroflarini kesishda baliq sirti iskana ishlatiladi.

Chekma iskana - uyilgan naqshning zaminini chakichlash uchun ishlatiladi. Naqshlarni aniklashtirinda, tozalashda, soflashtirinda qo'llaniladigan chekma iskanalar bir tishli, ikki tishli va ko'p tishli bo'ladi.

Kurakcha iskana - kesadigan tig'i qiya hammda buralgan bo'lib, kichik va katta kurak tishli iskanalar bo'ladi. Ular zanjira va xoshiya naqshlarini o'yishda ishlatiladi. Bolta yoki to'qmoq bilan urilmasdan qo'l bosim bilan siljitish orqali kesiladi.

Amaliy san'atda naqshlar o'yib tayyorlangach, naqsh yo'llari, naqshlar guruhlari birlashishlarini silliqlash uchun, tugunlari, barglari, novdadari, gultojilari, geometrik naqshlarning burchaklarini aniqlashtirishda toj, nov va ariqcha iskanalar hamda tor qalam, pula qalamlar, chekma qalamlardan foydalanib chakichlanadi. Chakich--tishli boltasimon asbob bo'lib, naqshlar zamnnining mustahkamligini, yorqinligini oshirishda qo'l keladi.

Amaliy san'at to'garagi qatnashchilari o'ymakorlikda foydalaniladigan amaliy materiallari, ularning turlari, fizik va kimyoviy xususiyatlari, zaxiralari va boshqalarni bilishlari lozim.

Amaliy materiallar-turli jinsdagi daraxtlardan, olinadigan xom ashyo (39, 2696.). Binokorlikda, qurilishda, mebelsozlikda, amaliy san'atda asosiy xom ashyo sifatida ishlatiladigan amaliylar daraxtlar tanasidan olinadi. Daraxt tanasi o'zak, amaliylik, shoxlar, tola va po'stloklardan tuziladi.

Amaliy xom ashyosi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

A) Tabiiy amaliy xom ashyosi – g'o'lalar, yo'nilgan, yorilgan, arralangan materiallar:

B) Turli buzilishlarga, chirishlarga qarshi antiseptik moddalar shimdirilgan amaliy xom ashyosi;

B)Presslangan amaliy xom ashyosi - tolalarining kundalang yo'nalishi bo'yicha 100-300 kg/sm bosim ostida 100-250 temperaturada qizdirib olinadigan xom ashyo;

G) Yelimlangan amaliy xom ashyosi - fizik-mexanik xossalari deyarli bir xil amaliy qatlamlarini orasiga yelim surkab, presslanib olinadi;

D) Qatlam - qatlam amaliy xom ashyosi - shpon yoki randalangan fanerlarni smolalar yoki yelimlar bilan bir-biriga yopishtirib tayyorlanadi;

E) Qatlamli - presslangan yog'och xom ashyo - sintetik smola shimdirilgan shponlarni 100-300 kg/sm bosim ostida va 150 C⁰ da qizdirib tayyorlanadi:

J) Plastik yog'och_xom ashyosi - maydalangan qipiq, payraxa va qirindilarni organik va mineral bog'lovchilar bilan yelimlab, qayta ishlab gayyorlanadi.

Amaliy o'ymakorlikda asosan 1-guruhga kiruvchi, ya'ni tabiiy amaliy g'o'lalaridan olinadigan taxtalar, yo'nilgan xom ashyo ishlatiladi. O'zbekistonda amaliylarning yumshoq, qattiq va juda qattiq g'o'lalar olinadigan nina barli va yapaloq bargli turlari mavjud. Daraxtlar bo'yiga qarab, uch guruhga: 3,5m dan baland - chinor, terak, tut, qora qayin, qarag'ay: 2,5m dan 3,5m gacha – qayrag'och, yong'ok, oq qayin, tol, qatrangi; 2,5m gacha - zarang, chetan, shumurt va mevali daraxtlarga, butalarga bo'linadi.

Nina bargli daraxtlardan olinadigan amaliylar qurilishda, jumladan, amaliy san'atda ko'proq ishlatiladi, chunki, ularning tarkibida smolasi ko'proq, tezda chirimaydi, uzun, ishlov berish oson xisoblanadi. O'ymakorlikda ishlatiladigan amaliylar rangiga, xiliga, turiga, tabiiy guliga, tovlanishiga qarab tanlanadi va turli mevali, shu bilan bira yapaloq bargli daraxtlar ham ishlatiladi.

Amaliy o'ymakorlash to'garagi qatnashchilariga bo'lg'usi o'ymakorlar amaliylar, ularning xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berish oson-qiyinligi va ishlov berilgandan keyin buyumning sifatli chiqishi va saklanishini bilishlar) uchun amaliylar olinadigan daraxtlarni o'rganishlari lozim.

Tog' teragi - yapaloq bargli, po'stlog'i sarg'ish, amaliyi yumshoq, yengil, oqish rangli, namda tez chirimaydi, amaliyini ishlash oson, yengil buyumlar — gugurt qutisi, o'yinchoqlar va fanerlar tayyorlanadi. O'ymakorlikda ishlatish tavsiya etilmaydi.

Ot qarag'ay - po'stlog'i yo'lka, silliq, kulrang, yumshoq yengil, oson ishlanadi, amaliyi oqish. Namga chidamsiz. Cholg'u asboblari yasashda, qisman o'ymakorlikda va asosan qurilishda ishlatiladi.

Qarag'ay - igna bargli, amaliyi puxta, yengil, namga chidamli, tik va to'g'ri taxtalar olinadi. Ishlov berish, arralash, randalash oson. Amaliy san'atda va boshqa sohalarda keng qo'lamda ishlatiladi.

Baq terak - O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida o'sadi, po'stlog'i silliq, tanasi sershox, to'g'ri o'smaydi. Namga chidamsiz, o'ymakorlikda kam ishlatiladi.

Mirzaterak - tanasi tik, to'g'ri, kam butoqli bo'ladi. Namga chidamliligi yuqori emas. Qurilishda va o'ymakorlikda ishlatiladi.

Oqqayin - bargi, amaliyi qattiq, namga chidamli. O'ymakorlikda kam, qurilishda ko'proq ishlatiladi.

Qoraqayin - bargli po'stlog'i tipik, namga chidamsiz. Amaliy san'atda keng ishlatiladi.

Shumtol - bargli, kam yoriladi. Quvushqoq amaliyli, mustahkam, o'ymakorlikda ko'p ishlatiladi.

Chinor - ko'p yillik, bargli, ko'p shoxli, mustahkam va qattiq. rangi qizig'ish qoramtir, saqlansa ajib bir chiroy bag'ishlaydi. O'ymakorlikda keng ishlatiladi.

Nok - mevali, bargli, amaliyi tik, jigarrang, o'ymakorlikda ishlatiladi.

O'rik - bargli, mevali, amaliyi qizig'ish, qattiq har xil mayda buyumlar, lavx, qutichatar tayyorlashda, o'ymakorlikda ishlatiladi.

Yong'oq - po'stlog'i ko'kish, ko'p yillik, amaliyi qoramtir, qattiq, qimmatbaho amaliy, yaxshi o'yiladi. O'ymakorlikda pollik xomashyo hisoblanadi. Yaxshi pardoatlanadi.

Amaliy san'atda ishlatiladigan turli xomashyolar o'zining pishiqligi, i nuqsonsizligi, qurt yemaganligi, rangining tiniqligi, mustahkamligi, loklansa, yanala go'zal tovlanishi ko'p yillarda yorilmasligi, buralmasligi, namga chidamliligi, pardoatlanishi, o'yishda sinmasligi va shunga o'xshash o'ziga xos xususiyatlarni bolalar yaxshi bilishlari lozim.

Amaliy san'at to'garaklarida bolalarni o'ymakorlik ishlariga tayyorlashda va o'ymakorlik ishlarini olib borishda quyidagi zaruriy bilimlar xajmiga ega bo'lishlari lozim:

1) amaliy san'at tarixi, kelib chiqishi, tarqalishi, o'ymakorlikning xayotimizda, turmushimizda, madaniyatimizda va jaxon madaniyatida tutgan o'rni.

2) o'ymakorlik maktablari, xalq ustalari, ularning uslublari, bir biridan farqi va o'xshashligi.

3) xavfsizlik qoidalari, ustaxonada xavfsizlikni saqlash, jaroxatlanishning oldini olish choralari.

4) o'ymakorlikdagi asosiy yumushlar, chiziqlar o'lchash, rejalash, chizmakashlik tarixi.

5) chizmakashlik asboblari, ularshng tuzilishi.

6) o'ymakorlik asboblari, ularshning xususiyatlari va tuzilishi.

7) amaliylar, xomashyo, daraxtlar turlari, tuzilishi, tarqalishi va xususiyatlari.

8) ranglar, ularning ahamiyati, turlari, bir-biriga kirishishi, ularning kishi ruxiyatiga ta'siri.

9) naqshlar elementlari, kompozitsiyalar, biriktirish elementlari va ularning turlari.

10) yelimlar, ularning turlari, tayyorlanishining fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari va boshqalar

Amaliy san'at to'garagi qatnashchilari quyidagilarni bajara olishlari lozim:

1. Amaliy xomashyosini tanlay olishi, xil turini ajrata olishi, turli tayyorgarlik bosqichlarida turli yumushlarni bajara olish.

2. Chizmakashlik asboblarini ishlata olish, o'lchash, rejalash, o'lchamlar qo'yish, asboblarni tuzatish.

3. Turli o'ymakorlik asboblarini ishlata olish, ularni ishga tayyortash, tuzatish va o'tkirlash.

4. Turli yelimlarni tayyorlay olish, ularni o'ymakorlikda qo'llash,

5. Turli andozalar, axta (ulga) olish va ularni samarali qo'llay olish.

6. Randalash. o'yish, tashish, arralashni bajarish. Bu turkumlardagi asboblarni bilan ishlay olish, ularni tuzatish va ishga tayyorlash.

7. Iskanalar bilan ishlay olish, o'yishda qo'l va bolg'a bosim kuchini mo'ljallay olish.

8. Turli naqshlar elementlarini chiza va yasay olishi, elementlardan naqshlar, naqshlardan murakkab naqshlar murakkab naqshlardan kompozitsiyalar yarata olish (sodda bo'lsa ham).

9. Xomashyoni ishga tayyorlash, o'yish, bajarilgan naqshga va turga mos keladigan pardoz turini tanlay olish, pardozlash xususiyatini ajrata olish hamda amalda bajara olish.

10. Ranglarni qo'llay va tayyorlay olishi, ulardan foydalanishi, asboblarini ishlatishi.

11. Turli buyumlarni tayyorlashda biriktrish, ajratish, yo'nish, tuzatish, pardozlash. yalshratishni bajara olish.

To'garak rahbari, o'qituvchi, usta amaliy san'at to'garaklarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini tashkil etishlari uchun quyidagi omillarga e'tibor berishlari zarur:

1. To'garak ishlarini, dasturlarni tuzishda, mavzularini tanlashda o'quvchilarning xayot tajribasini hisobga olgan holda bilimlar bilimlar berib borish.

2. To'garaklardagi guruhlarda (uch guruhda) bolalar bajaradigan topshiriqlarni tanlashda ularshning yosh, ruxiy, o'ziga xos jismoniy, aqliy-shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

3. To'garak ishini tashkil etishda mashg'ulotlarning ko'proq odatiy faoliyat mazmunida bo'lishini ta'minlashi, buning uchun mahalliy sharoitlarni, moddiy xom ashyo, o'quv uslubiy ta'minotni hisobga olishi.

4. Topshiriqlarning «oddiydan murakkabga, osondan qiyinga» qarab rivojlannishini borishini ta'minlashga harakat qilish.

5. O'ymakorlik ishlarini bajarishgacha bo'lgan yumushlarni bajarishga ham o'quvchilarni diqqat bilan tayyorlash.

6. O'ymakorlik ustaxonasini jihozlashda har bir mashg'ulotda zarur bo'ladigan ko'rsatmalarni stendlar, ko'rgazmalar, haritalar sifatida ta'minlash, ustaxonadagi mutadil gigayenik va xavfsizlik sharoitini ta'minlash.

7. Tayyor, andozalarga buyumlarga qarab chizish, yasash, qurish, o'yish ishlarini faqat kichik guruhlarigagina berib boorish, qolgan guruhlarda bolalarning ko'proq mustaqil ishlashiga erishish.

8. Har bir topshiriqning yumushning bajarilishida izchil taxlilni yo'lga qo'yish, kamchilik va yutuqlarni ko'rsatib kelgusi mashg'ulotlarga tuzatib borish.

12. Topshiriqlarni tanlashda bola zexni, faxm-farosati, aqliy qobiliyati mavjud bilim, ko'nikmalarining imkon boricha mustaqil va ko'proq ishlashini ta'minlay olishi, muammoli bo'lishiga erishish.

2.3 Tajriba sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining amaliy san'at yo'nalishlari vositasida estetik hislat vafazilatlarini shakllantirish jarayoni Samarqand viloyatining bir necha kasb-hunar kollejlarda o'rganildi, bular quyidagilardir:

Samarqand shahridagi milliy hunarmandchilik va qurilish yo'nalishidagi kasb-hunar kolleji.

Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi qurilish kasb-hunar kolleji.

Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi Barlos xizmat ko'rsatish va servis kasb-hunar kolleji.

Alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universiteti "San'at, musiqa va mehnat ta'limi" fakultetining amaliy san'at yo'nalishi guruhlarini tanlandi.

Tajriba-sinovlarni o'tkazish jaryonida quyidagi uslublardan foydalanildi:

Ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish, turli xil (pedagogik, psixologik, metodik, ilmiy, ommabop, badiiy) adabiyotlardan, gazeta va jurnallarni o'rganish, so'rovnomalar, anketalar, testlar tuzish, suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazish, rasmlar

chizish va tushirish, qayd qilib borish (taqqoslash), tahlil qilish, umumlashtirish, olingan natijalarni matematik-statistik jihatdan qayta ishlash, xulosalash.

Tajriba-sinovlarni o'tkazish mobaynida kasb-hunar kollejlari rahbarlari (direktori va o'rinbosarlari), umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlar o'qituvchilari, quyi va yuqori bosqichlar o'quvchilari, ota-onalari, homiy va otaliq tashkilotlar vakillari, xalq hunarmandlari, amaliy san'at ustalari, naqqoshlar, ganchkorlar, yog'och, metall va tosh o'ymakorligi, musavvirlar, xaykaltaroshlar, usta kashtachilar va zardo'zchilar, bichuvchi va tikuvchi, to'quvchilar bilan kuzatishlar olib borildi. Tajriba-sinov dars ishlanmalari, maqolalar, tavsiyalar, tarqatmali va ko'rgazmali materiallar to'plamlari, amaliy san'at asrlarining namunaviy variantlari, turli xil nusxalar, kalkalar, so'rovnomalar, jadvallar, testlar, so'rovnomalar, tadbirlar ssenariyalari, buyumlar va ularning qismlari va boshqalar tayyorlandi.

Shuningdek, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va o'qituvchilarining ish yuritish hujjatlari, dars materiallari va dars matnlari, mashg'ulotlari, ishlanmalari, guruhlar jurnallari, amaliyotchilar kundaliklari, hisobotlar va ularga ilova tarzida qo'shilgan metodik materiallar, o'qituvchilar va o'quvchilarning mustaqil bajargan ijodiy amaliy san'at asarlaridan namunalar, ko'rgazmalar, ekspozitsiyalari, kompozitsiyalari, referatlar, yozma, chizma kurs, diplom (bitiruv) ishlari namunalari va boshqalar o'rganiladi, tahlil qilinadi.

Quyida "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining estetik tushuncha va tasavvurlarini o'rganish darajalarini aniqlash bo'yicha anketa-savolnoma (1-ilova) va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining estetik fazilatlarini shakllantirishi mumkin bo'lgan xalq amaliy san'ati turlarini bilishlarini aniqlash so'rovnoma-anketasi".

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining estetik tushuncha va tasavvurlarni o'rganish darajalarini aniqlash bo'yicha

ANKETA-SAVOLNOMA

Hurmatli o'quvchilar! Ushbu savolnoma-anketa to'liq ilmiy maqsadlarda o'tkazilmoqda, shuning uchun javoblaringizni ochiq va to'liq belgilashlaringiz mumkin.

1. Estetik (nafis) tarbiyalangan tarbiyalangan kishi deganda nimani tushunasiz!
2. Estetik tushuncha nima?
3. Estetik ong nima uning ko'rinishlari qanday namoyon bo'ladi?
4. Estetik his-tuyg'uning namoyon bo'lishi, ko'rinishlari qanday bo'ladi?
5. Estetik did nima?
6. Estetik didning hayotda, o'qishda, ishda namoyon bo'lishi, ko'rinishlari to'g'risida nimalar deya olasiz?
7. Estetik tasavvur va tafakkur haqida nimalar ayta olasiz?
8. Estetik faoliyat qanaqa ko'rinishlardan iborat bo'ladi?
9. Dizayn va dizaynerlik kasblari to'g'risida tushunchalaringizni yozing
10. Kasb-hunar kollejlari estetik tarbiyalanishning manbalari nimalar deb o'ylaysiz?

2-ilova:

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining estetik fazilatlarini shakllantirishi mumkin bo'lgan xalq amaliy san'ati turlarini bilishlarini aniqlash

SO'ROVNOMA-ANKETASI

Hurmatli o'quvchilar! Ushbu savolnoma-anketa to'liq ilmiy maqsadlarda o'tkazilmoqda, shuning uchun javoblaringizni ochiq va to'liq belgilashlaringiz mumkin.

1. Xalq amaliy san'ati nima?
2. Naqqoshlik nima va uni siz qayerlarda uchratgansiz?
3. Ganch o'ymakorligi nima va siz ularni qayerlarda uchratgansiz?
4. Yog'och o'ymakorligi nima va unda qanday buyumlar tayyorlanadi?
5. Metall o'ymakorligi nima va unda nimalar tayyorlanadi?
6. Kashtachilik nima va bu sohaning 5-6 ta nomdagi buyularini ta'riflang?

7. Zardo'zlik nima va bu sohada tayyorlanadigan 5-6 ta buyumni ta'riflang?
8. Me'morchilik nima?
9. Haykaltaroshlik nima va uning yo'nalishlarini ta'riflang?
10. Amaliy san'atda dizayn deganda nimani tushunasiz?

Ushbu 1 va 2 ilovalarda keltirilgan savolnoma-anketalarda dastlabkisida o'quvchilarning estetik tarbiya, estetik ong, estetik tasavvur va tushunchalar to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajalari, manbalarini bilishlarini aniqlash uchun tuzildi. 2-ilovadagi savolnomada esa o'quvchilarning xalq amaliy san'ati yo'nalishlarin bilishlari ularning o'quvchilarga estetik tarbiya berishdagi ahamiyati va o'rnini aniqlashga harakat qilindi. Masalan, 1-ilovada o'quvchilarning estetik tushuncha va tasavvurlari, ongi va tafakkuri to'g'risidagi fikr va mulohazalarini aniqlash uchun 10ga yaqin savollar tuzilib, o'quvchilarga javoblarni tayyorlashlari uchun berildi.

Tajribalar sinov ishlarida 1-o'tkazishda quyi bosqich 54 nafar KHK o'quvchilari 18 nafar o'qituvchi, 0 nafar rahbarlar va ularning o'rinbosarlari, 14 nafar ota-onalar, 28 nafar talabalar qatnashdilar. 2-o'tkazishda 52 nafar yuqori bosqich KHK o'quvchilari va boshqalar qatnashdilar.

Estetik ong, estetik tushuncha, estetik his-tuyg'u, estetik did nima, ularning ko'rinishlari, nimalardan iborat deyilgan savollarga o'quvchilarning ko'pchiligi dastlabki holatlarda noto'g'ri javob berganlar! Keyingi o'tkailganlarida esa, tushuntirish ishlari va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazilgach, qo'shimcha metodik materiallarberilgach ularning javoblari ijobiy tomonga qarab keskin ravishda siljidi.

Xuddi shuningdek estetik didning hayotda, ishda va o'qishda namoyon bo'lishi, ko'rinishlari to'g'risida, estetik tasavvur va tafakkur, estetik faoliyat ko'rinishlari, dizayn va dizaynerlik, kabi atamalarning o'quchilar javoblarida namoyon bo'lishlari ham turli xil ko'rinishlarda keltirib o'tildi.

Masalan, estetik tarbiyalanishning manbalari haqida nimalar deb o'ylaysiz degan savolga ular ota-onalar, o'quvchilar, aka-ukalar bilan suhbatlashilganda, yoki turli

xil filmlarni ko'rganda, turli adabiyotlarni o'qiganda deb umumiy holda ijobiy javob berganlar, agarda ularning javoblarida bir xillik bilan cheklanib qolganlarida edi, bu hol nisbatan salbiy holatlarni keltirib chiqargan bo'lar edi.

san'ati turlarini bilishlari darajasini o'rganish uchun tarqatilgan so'rovnoma-anketadagi, xalq amaliy san'ati nima? Naqqoshlik va ganchkorlik nima, siz uni qayerlarda uchratgansiz? Yog'och, metall o'ymakorligi nima ularda qanday buyumlar tayyorlanadi? Kashtachilik va zardo'zlik nima va ularda tayyorlanadigan 5-6 ta buyumlarning nomlarini ayting va ta'riflang degan savollarga o'quvchilar bir tomonlama, quruq o'ylamasdan javob qaytarganlar. Masalan, xalq amaliy san'ati bilan xalq hunarmandchiligi, amaliy bezak san'ati sohalarini aralashtirib yuborishgan. Shuningdek, naqqoshlik, ganchkorlikning xalq amaliy san'atiga, temirchilik, misgarlikning xalq hunarmandchiligiga, zargarlik va kashtachilikning amaliy bezak san'atiga taalluqli ekanligini aniq farqlarini to'liq aytib bera olmaganlar. Xalq hunarmandchiligida bevosita turmushda foydalaniladigan buyumlar tayyorlansa, amaliy san'atda esa bilvosita san'at asarlari sifatida tayyorlanadigan jihozlar tayyorlanadi.

Xuddi shuningdek, kashtachilik va zardo'zlikda tayyorlanadigan 5-6 ta buyumni ta'riflang deyilganda, palak, so'zana, bolish, to'rxalta, choynakpo'sh, kamzullar, zar choponlar kabi umumiy javoblarni berganlar. Shuningdek, me'morchilik, haykaltaroshliklarning o'ziga xos xususiyatlari, bir-biriga o'xshashliklari, farqlarini keskin ajratib beradigan belgilarini aniqlab bera olmadilar.

So'rovnoma-anketaning savollarini ikkinchi marta tarqatishdan oldin uularga yuqoridagi amaliy san'at turlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar berildi, ba'zi ko'rsatmali va tarqatmali vositalar tarqatildi, kengaytirilgan tushintirish ishlari olib borildi, shuning uchun ularning javoblari ijobiy tomonga qarab keskin siljidi. Bu hol esa tajriba-sinov ishlari uchun tanlangan uslublarning maqsadga muvofiqligini yana bir marotaba tasdiqladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur tadqiqot ishida yoritilgan kasb-hunar kollejlarda amaliy san'at yo'nalishlari vositasida o'quvchilarni etetik tarbiyalash muammolarining yechimlarini topish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Avvalo, kasb-hunar kollejlarda amaliy san'at turlarini o'qitish didaktikasini takomillashtirish, ularning har bir turining o'ziga xos o'qitish metodikalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ham tto'liq ishlab chiqilmaganligi ham muammoning dolzarblik tomonlaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda kasb-hunar ta'limining uzoq bosib o'tgan yo'li, taraqqiyoti va ularni yoshlarga yetkazish ham navbatdagi muammolardan hisoblanadi. Ma'lum yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarda umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlar guruhlaridagi har bir fanning o'qitilishi metodikalarini takomillashtirish, har birining didaktik, tarbiyaviy imkoniyatlarini yoritish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dissertasiya tadqiqot ishidagi o'quvchilarning estetik tarbiyalanishida avvalo, estetika asoslari fanining didaktik-tarbiyaviy imkoniyatlari, so'ngra boshqa mutaxassislik fanlarining ushbu sohadagi ahamiyati qarab chiqildi.

Shuningdek, amaliy san'at turlaridan naqqoshlik, yog'och, metall va ganch o'ymakorligining, kashtachilik va zardo'zlikning ham o'quvchilarning estetik tarbiyalanishidagi o'rni yoritildi. Har bir naqshni, naqsh elementlarini (unsurlarini) kompozitsiyalarini tayyorlashda ularning o'zaro uyg'unlashgan holda tayyorlanishi va birlashtirilishiga va ma'lum koloritni ifodalashiga ham e'tibor berildi.

O'quvchilarda estetik ong, estetik tushunchalar estetik tafakkur hamda didni, faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun turli xil manbalardan foydalanishlari imkoniyatlari ham yoritildi. Shuningdek, ularda o'z mehnat, o'quv, hayotiy faoliyatlarini estetik did va tuyg'u bilan birgalikda olib borish tushunchalari shakllantirildi.

Xalq amaliy san'atining naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och va metall o'ymakorligi, kashtachilik, zardo'zlik, me'morchilik va haykaltaroshlikning o'ziga xos nozik tomonlari, bir-biriga o'xshashliklari, farqlari o'rgatilishi bilan bir qatorda ularning estetik xislat va fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni ta'kidlandi.

Tadqiqot ishida amaliy san'at turlarining o'quvchilarning hayot yo'llarini tanlashlarida, turli xil kasb-hunarlarni o'rganishlarida, bandlik xizmatining muvofiq holda tashkil etilishidagi belgilashga ham asosiy e'tibor qaratildi. Zero, hozirgi davrda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining turli ta'lim muassasalarini har yili tugallab, mustaqil hayot sari o'tlanayotgan yarim milliondan ziyod yoshlarning ishi, hayoti, kasb-hunarlari, jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Toshkent" O'zbekiston 1992-36 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Ta'lim to'g'risida" Toshkent Sharq 1998 yil 20-29 bet
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori "Toshkent" Sharq 1997 yil 32- 63 bet
4. 2004-2009 yillarda maktab ta'limining rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
5. O'zbekiston Respublikasi VM ning 2004 yil 2 iyuldagi 321 sonli qarori
6. O'zbekiston Respublikasida o'rta mahsus kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora – tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi VM ning 1998-yil 13-maydagi 204-sonli qarori
7. O'zbekiston Respublikasi VM ning O'rta mahsus kasb-hunar talimining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida 2000-yil 6-oktyabr qarori
8. "Ulug'bek vorislari" gazetasi 2000 yil 30-noyabr
9. 1999-2005 yillarda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi.
10. O'zbekiston Respublikasi BM 1998 yil 23-sentyabrdan 406-sonli qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida. Toshkent. Ma'rifat, 2006 yil. 26-avgust. №68.
12. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. Toshkent. O'zbekiston 1995 yil. 23 bet.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, Toshkent "Ma'naviyat" 2008 yil. 174 bet

14. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Tashkent O'zbekiston 1997 yil 327-bet
15. Karimov I.A Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoyitida uni bartaraf etish yo'llari Tashkent/ O 'zbekiston N.M.I.U. 2009 yil 56-bet
16. Karimov I.A O'zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida Tashkent 2011 yil O'zbekiston 342-bet
17. Karimov I.A O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida Tashkent O'zbekiston 2005 yil 140-bet
18. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri". Tashkent O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2004 yil 160-bet.
19. Abdulla Avloniy Turkiy gulisrton yohud ahloq. Tashkent 1992 yil 16-bet.
20. Barkamol avlod orzusi. Qurbonov Sh. va b. to'ldirilgan 2-nashr. Tashkent. O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi. 2000 y. 248-bet.
21. Botirov G. Botirov B. Kichik mutaxassislar tayyorlashda xalq pedagogikasi va ustoz shogird an'analari. //Maktab va hayot.-T.: 2005.№5. B.11-13.
22. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.-T.: Mehnat. 1991y. 384-bet.
23. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1992 y. 48b.
24. Jo'rayev R.H. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning kasb-hunar tayyorgarligini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti. Tashkent. Fan. 1992 y. 260b.
25. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik tashhishlash yo'llari. //Xalq ta'limi. 2006. №6, 28-32b.
26. Yo'ldoshev A. Kasb-hunar ta'limida tarbiyaning ilmiy asoslari. // Xalq ta'limi. 2000. №3, 119-121b.
27. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tasniflagichi (klassifikatori) Tashkent. VM. 2000. O'MKHTRI. 41b.

28. Ma'naviyat yulduzlari. Makaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar. Mas'ul muharrir M.Hayrullayev.
29. Muranov B.I. Hozirgi sharoitda yoshlarning kasbiytayyorgarligi jarayonida xalq hunarmandchiligining o'рни. /Problema i professionalnogo obrazovaniya. – Toshkent-Fan. 1996.-279-284b.
30. Oripov I. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridan foydalanish.//Xalq ta'limi. 2004. №4. 62-64b.
31. Ro'ziyev I.E. Kichik mutaxassislar tayyorlash muammolari. //Kasb-hunar ta'limi. 2004. №6 15-16b.
32. To'raqulov X.O. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. – Toshkent. Fan. 2006. 251b.
33. Umarov E., Karimov R. va b. Estetika asoslari. Toshkent. “Cho'lpon”. 2011 yil. 206b.